

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**Pedagogika-psixologiya fakulteti**

**“5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish” yo'nalishi**

**Bitiruvchisi Mo'minova Muqaddas Ibodullayevnaning**

**bakalavr darajasini olish uchun yozilgan**

**“BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ QO'SHIQLARIDAN**  
**FOYDALANISH” MAVZUSIDAGI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**dots.N.Ochilov**

**Qarshi-2013**

## MUNDARIJA

**KIRISH (Ishning umumiy tavsifnomasi).....**

**I BOB. Xalq qo'shiqlari va ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.....**

**1.1. Xalq qo'shiqlari haqida.....**

**1.2. Xalq qo'shiqlarining tarixiy asoslari va badiiyati.....**

**II BOB. Xalq qo'shiqlarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish  
usullari.....**

**2.1. Boshlang'ich sinflarda xalq qo'shiqlarini o'rgatishning amaliy  
ahamiyati.....**

**2.2 Xalq qo'shiqlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy  
malakasini o'stirish usullari.....**

**Xulosa. ....**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....**

# KIRISH.

**Mavzuning dolzarbligi.** Har bir davlat, har bir millat birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida: "Yosh avlodni ma'naviy—axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi",- deb qayd etilgan.

Xalqimizning uzoq o'tmishidan saqlanib qolgan boy milliy ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlarini, an'analari, ona yurtimizning bebaho me'moriy obidalari, madaniy yodgorliklarini targ'ib-tashviq etish, ulardan foydalanish asosida o'quvchilarda vatanimiz bilan faxrlanish tuyg'ularini uyg'otish o'zbek tilini egallash orqali yanada tezroq va samaraliroq amalga oshadi.

Prezidentimiz I.A. Karimov: "Demokratik jamiyatda har bir insonni erkin fikrlaydigan etib tarbiyalash kerak. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak, ammo bilim o'z yo'lida, mustaqil fikrlash ham katta boylikdir"-degan edilar. Kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bugunning eng dolzarb vazifasi ekanligini ta'kidlay turib. Lekin ushbu mashg'ulotlarni samarali tashkil etish va o'tkazish, ayni paytda nutq rivojiga hissa qo'shish maqsadida yangi-yangi uslubiy tavsiyalar, qo'llanmalar yaratilishi, ilg'or ish tajribalari to'planib ommalashtirilishi uchun ehtiyoj sezilmoqda. Mustaqillik tufayli xalq ijodi, urf-odatlariga qiziqish va o'rganish benihoyat avj oldi. Qisqa muddatda repertuarining asosini teatrlashgan xalq marosimlari, ananaviy xalq qo'shiqlari

tashkil qilgan o'nlab folklor-etnografik dastalari paydo bo'ldi. Qo'shiqlar xazinasining asosi badiiy yuksak an'anaviy namunalardan iborat. Shu bo'lib xalq qo'shiqlari umumta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim "O'qish kitobi" da ham kiritilgan. Mavzuni tahlil qilish jarayonida biz boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini, ularning fikrlash doirasini kengaytirishda xalq qo'shiqlarining ahamiyatini ko'rsatishga harakat qildik. Shulardan kelib chiqqan holda xalq qo'shiqlarining mavzu ko'lami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, nutqiy savodxonligini oshirish hamda qo'shiqlar orqali o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish xalq qo'shiqlarini ilmiy-nazariy asosida tahlil qilish mavzumizning dolzarbligini belgilaydi.

### **Ishning o'rganilganlik darajasi.**

Xalq qo'shiqlarining tarixiy asoslari, obrazlar xilma-xilligi, janriy xususiyatlari, goyaviy-badiiy asoslari M.Alaviya, M. Jo'rayev, A.Musakulov, M.Jumaboyevlar tomonidan ilmiy-nazariy tahlilga tortilgan. Ammo biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga Xalq qo'shiqlarini o'rgatish mavzusi ilk marotaba tahlil qilinmoqda.

### **Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari**

Ma'lumki, o'zbek milliy bolalar qo'shiqlari juda ko'p yillik tarixga ega. Qo'shiqlarda bolalarning jismoniy jihatdan faol bo'lishi, aqliy jihatdan ziyrak bo'lishlari ko'zda tutilgan. Milliy qo'shiqlarga doir so'z va iboralarning ishlatilishi ham alohida o'rganishni talab qiladigan soha sanaladi. Odatda, bolalarning ko'pgina milliy qo'shiqlari o'ziga xos tarzda ijro etiladi. Bunday qo'shiqlarni boshlang'ich sinf o'quvchilarga o'rgatish ancha ijobiy natija beradi. Qo'shiqlar bolalarning nutqini o'stirishga qaratilsa, ikkinchidan, milliy

qadriyatlarimiz, milliy ma'naviyatimiz, milliy istiqlol g'oyalari bilan amaliy faoliyatida tanishish va uni o'zlashtirishdan iboratdir. Shuning uchun ona tili mashg'ulotlar va tadbirlarga katta mas'uliyat bilan qaraladi.

O'quvchilarning dars jarayonida shakllantirilgan nutqini mustahkamlash masalalari hozirdagi dolzarb vazifalardan biridir.

- qo'shiqlarning nutq o'stirishdagi ahamiyati, mavjud imkoniyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiya talablari asosida qayta ko'rib chiqish;

- qo'shiqlarning nutq o'stirishdagi holati va buning ta'sirida o'quvchilar nutqining o'sish darajasini o'rganish,

-o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish maqsadida qo'shiqlarning foydalanishdagi erishgan yutuq va yo'l qo'yayotgan kamchiliklarini aniqlash va metodik xulosalar chiqarish;

-qo'shiqlar yordamida o'quvchilarni ma'naviy kamolot sari yo'naltirish;

- Nutqni o'stirishda qo'shiqlardan foydalanish;

- qo'shiqlar vositasida nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish;

### **Bitiruv malakaviy ishning obykti va predmeti.**

Ishimizning predmetni folklorshunos olimlar tomonidan yozib olib nashr kilingan Xalq qo'shiqlari, shuningdek, «Ukish kitobi» da keltirilgan namunalar tashkil etadi. Ishimizning obyektini umumta'lim maktablarida malakaviy amaliyotni utash jarayonida dars utish mobaynida kullagan natijalarimiz tashkil etadi

### **Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi**

Ko'hna va boy tarixga, noyob madaniyat va yuksak ma'rifatga ega o'zbek xalqining an'ana va sharqona urf-odatlari qadimiyydir .O'zbek xalqining jahon

xalqlari o'rgansa arzigulik an'ana va milliy qadriyatlari bor. Milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qariyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalq qo'shiqlari o uzoq o'tmishga ega. Uarning paydo bo'lishi eramizdan oldingi davrlarga borib taqaladi. Davrlar o'tishi ijtomoiy- siyosiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar oqibatida ko'pgina qo'shiqlar yangilari bilan almashina boshladi. Qo'shiqlar kishiga o'tmishdan saboq beradi, bugunning qadriga yetishga, uni e'zozlashga o'rgatadi. Qo'shiq bolalarning diqqatini bir joyga to'plashda yordam beradi. Bola mavjud hayotda hali uddalay olmaydigan narsalarni ham qo'shiq jarayonida uddalashga harakat qiladi. Bunda bolalar o'z-o'zini boshqarishni o'rgana boradi. Bugungi kunda qo'shiqlar amaliyotda keng qo'llansa ham, ilmiy-metodik nuqtai nazardan yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu ishimizda qo'shiqlar yordamida bolani tarbiyalash, ularni o'zbek tilining qonun-qoidalariga rioya qilishga o'rgatish usullarini ishlab chiqishga harakat qildik.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi  
va taxlil metodlari.**


Ishimizning metodologik asosini Prezidentimiz I.A.Karimovning Xalq ogzaki ijodining Xalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyatiga bagishlangan ma'ruzalari, asarlari tashkil etadi.

Ishni taxlil qilish jarayonida tarixiy-kiyosiy metoddan foydalandik

**Ishning ilmiy-nazariy va amaliy  
ahamiyati.**

O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan tasnif etildi, Xalq qo'shiqlarining mazmuni, uni tashkil etish va o'tkazish shakllari va usullari passiv va faol nutqqa bog'lab yoritildi. Qo'shiq jarayonida o'qituvchi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishi, tovushlarni bir-biridan farqlashlariga e'tibor berishi, bolalar nutqini doim kuzatib borishi va xatolarni tuzatib borishi lozimligi ishda o'z ifodasini topdi.

Ishning natija va xulosalaridan maktab, litsey, kollejlarda xalq og'zaki ijodi fanidan amaliy mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.



Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I BOB. Xalq qo'shiqlari va ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.**

### **1.1 Xalq qo'shiqlari haqida**

Qo'shiq san'atning insoniyat tomonidan eng oldin o'ylab topilgan turi deb taxmin qilinadi. Rivoyat qiladilarki, yer yuzidagi birinchi qo'shiq Hobil otli o'g'li o'lganda, Odamato tomonidan aytilgan marsiya bo'lgan ekan. Negaki, odamzod tug'iliboq alla eshitadi, o'lganda yig'i bilan kuzatiladi. Shu sababli ham qo'shiq xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va keng tarqalgan janrlaridan biri sanaladi. Xalqning iste'dodli vakillari juda uzoq asrlar oldin ham o'zlarining nozik va murakkab tuyg'ularini, qora so'zga sig'maydigan kechinmalarini qo'shiqqa aylantirganlar. O'zbeklar g'oyat ko'p miqdordagi xalq qo'shiqlariga ega millatdir. Xalq qo'shiqlarini yaratish texnik taraqqiyot cho'qqiga ko'tarilgan bugungi kunda ham davom etayotganligi diqqatga molikdir. O'zbek xalq qo'shiqlari ko'pqirrali va sertarmoqdir. Jumladan, xalqimiz tomonidan mehnat, marosim, mavsum, lirik yo'nalishlarda minglab qo'shiqlar yaratilgan. Mehnat qo'shiqlarining o'zi chorvachilik, dehqonchilik, ovchilik, kosibchilik singari yana bir qator turlarga bo'linib ketadi. Lirik qo'shiqlar xalq qo'shiqlari orasida juda qadimiyligi, sonining ko'pligi va badiiy saviyasining yuksakligi bilan ajralib turadi. Bu xil qo'shiqlar 1072-1074- yillarda yaratilgan «Devonu lug'otit turk» asarida ham ko'plab uchraydi. Bobo tilimizdagi so'zlarni izohlagan buyuk olim Mahmud Koshg'ariy biror so'zning qanday ma'noda qo'llanilganligini ko'rsatish uchun xalq qo'shiqlaridan unumli foydalangan. Kitobda ovchilik, chorvachilik mavzularidagi qo'shiqlar bilan birga ishq-muhabbat haqida bitilganlari ham uchraydi. Chunonchi: Uzuk meni qumitti, Saqinch manga yumitti, Ko'nglum angar emitti, Yuzum maning sarg'arur. (Suygulim mem hayajonga soldi, Sog'inch meni qiynadi. Ko'nglim U tomon ketdi, Yuzim mening sarg'ayur.) Bu qo'shiqda ifodalangan fikrlarni u qadar sodda deb

bo'lmaydi. Oshiq yigit «uzik», ya'ni suluv qiz uning aqlini o'g'irlagani, sog'inch azob berayotgani, yuragi o'z ixtiyoridan tashqari qiz tomon enib borayotgani haqida iztirob bilan kuylaydi. U shunchaki xabar bermaydi, balki ko'nglidan kechgan murakkab tuyg'ularni ramziy ifoda etadi. Ikladi maning azaq, Ko'rmazib o'g'n tuzaq. Igladim andin uzaq, Emlagil emdi tuzaq. (Ilindi mening oyog'im, Yashirin ekan tuzoq. Bo'ldi azobi uzoq, Endi o'zing em qilgin.) Qo'shiqning lirik qahramoni «sevib qoldim» degan jo'n ifoda o'rniga «oyog'im tuzoqqa ilindi» degan tashbeh ishlatadi. Bu holning to'satdan, kutilmaganda, bir ko'rishdan bo'lganligini esa, «Ko'rmazib o'g'ri tuzaq» tarzida ifodalaydi. Oshiq «oyog'i» emas, aslida, qalbi «tuzoq»dan, ya'ni muhabbatdan azoblangani, yarador bo'lganini va bunga faqat ma'shuqaning o'zigina em — davo qilishi mumkinligi juda ham ta'sirchan va go'zal yo'sinda ifodalanadi. Boshqacha aytganda, qo'shiqda she'riy timsollar bilan ish ko'riladi. Bu, albatta, «Devonu lug'otit turk» kitobidagi qo'shiqlarning badiiyati yuksakligini ko'rsatadi. Ayni shu hol bu qo'shiqlarning o'rgamchik emasligi, aksincha, katta estetik tajriba samarasi ekanligidan dalolatdir. Lirik qo'shiqlarga xos bosh xususiyat shundan iboratki ular xoh sozsiz, xoh soz jo'rligida bo'lsin, kuylangan, ijro etilgan. Shuningdek, ularda muallifning ichki kechinmalari, tuyg'ulari, quvonch-u alamlari ifodalangan. «Adabiyot» majmuasida xalqimizning lirik qo'shiqlaridan bir qator namunalar berilgan. Ularda xalq qo'shiqlariga xos belgilar yorqin aks etgan. Jumladan, «Qizilni qo'yib yuziga» misrasi bilan boshlapadigan qo'shiqda yo'lga, ehtimol, uchrashuvga o'tlanayotgan suluvning tashqi holati tasvirlanishi asnosida uning ichki dunyosi, kechinmalari teran ochib beriladi. Yo'lga shaylanayotgan go'zal qizning ovozi shunchalik mayinki, ko'kda parvoz qilayotgan kaptar-u, ko'lda suzayotgan o'rdakni mast qilib, hushidan ayiradi. Bu mubolag'ali tasvir o'z-o'zidan oshiq yigit holini tasavvur qilish imkonini beradi: Osmonda uchgan ko'k kaptar, Ko'lda suzgan so'na, o'rdak, Mast bo'p yerga yiqildi «Oyim qizlar!»- deb chiqqan Oyimning ovozigina. Qo'shiqda suluvning kiyimlari, sochbog'i, ming dinor turadigan gul shaklidagi taqinchog'i, sochidagi bezaklari, tilla tugmalari nihoyatda

qimmatbaho, nafis va noyob ekanligi batafsil tasvirlanadi. Lekin ular qizning nechog'lik boy ekanligini emas, balki sanamning ma'naviy qiyofasi qanchalar zeboligini ta'kidlashga yo'naltirilgan. Qo'shiqda suluv qiz tilidan aytilgan: Gapim ayib etmasin, Tilim toyib ketmasin. Hay, gul bilan yelpib yur, Betimni qavartmasin. Zavqim kelib kulganda, Belim sinib ketmasin shaklidagi e'tirotlarda suluvning nozikligi ulkan badiiy mahorat bilan ko'rsatiladi. Sanam yelpinayotganda gul tegib ketsa, beti qavarishi, zavqi kelib kulsa, beli sinib ketishi mumkin. Lekin odobli qiz sifatida uni «tilining toyib ketishi» ko'proq o'ylantiradi. Qizga xos fazilatlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaganligi, balki «mulladan olingan adab» natijasi ekani qo'shiqda alohida ko'zga tashlanmaydigan tarzda nazokat bilan aks ettirilgan. Qo'shiqda suluvga xos yuksak ma'naviy sifatlar izohlab o'tirilmay, «Yaxshi barchaga kerak» tarzidagi misra orqali beriladi. «Qizilni qo'yib yuziga» qo'shig'ida suluvning belgilari qat'iy bir intizom, tartib bilan izchil tasvirlanganligi uning ta'sir darajasini oshiradi. Chunonchi, qo'shiq avvalida uning kiyimlari, ovozi madh etilgan bo'lsa, «hay, alqanib-alqanib, Qora zulfi to'lg'anib. To'qqiz tutam zar chochbov, Tovoniga chulg'anib» misralarida qizning sochi kuylanadi. «Oyim chiqdi o'tday bo'p, Oq badani sutday bo'p» satrlarida esa oq yuzi, go'zal badani o'ziga xos tasvir etiladi. Uzungina qo'shiqning boshidan adog'iga qadar ham suluvga oshiqning ko'zi bilan qaraladi va uning fazilatleri yigit nazari bilan idrok etiladi. Suyukli qizga xos sifatlar, ayniqsa, «Ichgan suvi g'ilt etdi halqumidan ko'rinib» tasvirida avj nuqtaga chiqadi. Qo'shiq oxiridagi: Go'shvoringni ko'tar, qiz, Qulog'ing sinib ketmasin. Har zulfingni ko'tar, qiz, Oy yuzingga botmasin! tasvirlari qizning nozikligini o'ta bo'rttirib ko'rsatish bilan birga uning ko'ngli, tuyg'ulari go'zalligiga qilingan ishora hamdir. O'zbeklar orasida juda keng yoyilgan, hozirga qadar ham turli shakllarga solib kuylanayotgan xalq qo'shiqlaridan biri «Qarg'alar uchsa qaraylik» satri bilan boshlanadigan qo'shiqdir. Unda suyganiga intilib, yetolmagan oshiq holati g'oyat dardchil tasvir etilgan. Qarg'a — qish elchisi. Turkiy xalqlar uchun qish ko'ngilsizlikni bildiradi. U ayriliq, xazon, yo'qotish singari ezgin tushunchalarni ifodalaydi. Shu

bois oshiq yigit qarg'aning uchishini ko'riboq, Marg'ilon yo'llarini eslaydi. Ayni vaqtda, Marg'ilon unga.«handalak bo'yli» yorini yodga tushiradi. Visoliga erishmoq mushkul bo'lgan yor shu qadar yoqimlik, undan handalakdan keladigan mast qilguvchi shirin bo'y taraladi. Ma'shuqa yodga tushishi bilan oshiq o'zining onasidan ajralgan to'tiqush singari ayanch ahvolini qayta tuyadi: «handalak bo'ylikkinam, Siz unda zor, biz bunda zor. Ikkalamiz to'tiqushning Bolasiday intizor». Lirik qahramon suyuqlisi bilan o'zining holatini o'ylagani sari qo'shiqda ezgin ruhiy holat ifodasi kuchayib boraveradi: Intizorlik torta-torta Tanda toqat qolmadi. Yo'lchivindek sarg'ayib Ucharga holat qolmadi. Qarg'aning ucha boshlashi tabiat uchun qishdan darak bo'lganidek, uning paydo bo'lishi oshiq uchun visol bog'lariga qirov qo'nganidan, ishonch yaproqlarini sovuq urganidan dalolat bo'ladi. Qish kirib kelgach, yo'lchivinlar sarg'ayib, halokatga mahkum bo'lganlari singari vasldan umidini uzgan oshiqning ham hayotdan ilinji qolmagan. G'arib va chorasiz oshiq ma'shuqasi yo'lida shu qadar ko'p ko'z yosh to'kadiki, ulardan baliqlar suzib yurishi mumkin bo'lgan daryo hosil bo'ladi. Oshiq yigit 1 Go'shvor — sirg'a. holini ana shu baliqlardan so'rash mumkin. Ma'lumki, baliqlar ovoz chiqarmaydi, gapirmaydi. Demak, sevgan yigitning ruhiy holati g'oyat ezgin va nochor. Lirik qo'shiqlar, asosan, dard ifodasi o'laroq paydo bo'ladi. Chunki chinakam insoniy dardni oddiy so'zlar bilan ifodalash mumkin emas. Inson o'z dardini bir qadar yengillatmoq uchun ham uni qay shakldadir aytib, ko'nglini bo'shatgisi keladi. «Hovlichangda gul ko'rdim» qo'shig'i ham ko'nglini bo'shatgisi kelgan inson tuyg'ularini ifodalaydi. Qo'shiqning qahramoni — iztiroblar og'ushida qolgan nochor kimsa. She'rning dastlabki bandida o'z chorasizligini ifodalash bilan birga, ko'pdan beri ko'rmagan yorini «uxlab tushida» ko'rganini aks ettiradi. Keyingi badda esa o'zining injiq va tushunarsiz ruhiy holatini izohlaganday bo'ladi: Eshik oldi Oydinko'l,Oyna solsam botmaydi. Men yorimni sog'indim, Xat yuborsam qaytmaydi. Qo'shiqning lirik qahramoni — ko'ngil kishisi. Shu bois olgan yorining «sunbul dardi», ya'ni sunbula oyi kirganda qo'ziydigan kasali borligidan, shuningdek, «Obtobadan suv icholmay, Kunda

dardi», ya'ni hamisha dardmanligidan shikoyatlanadi. Aslida hamma gap ko'ngilning ilimasligida. U qaylarga dir ketgisi, mavjud ahvolni o'zgartirgisi keladi. Lekin yo'llarda to'siqlar bor: «Bu tog'lar baland tog'lar, g'arib yo'lini bog'lar». Kishi beixtiyor o'yga toladi: o'tib bo'lmas bu tog'lar shunchaki tog'larmikin yoki kishini turli tomondan o'rab olgan burch, majburiyat, udum singari kishanlarmikin? Qo'shiqning tugallanishi yanada shikasta, umidsiz ohangda bitilgan: G'aribga g'arib yig'lar Biz g'aribga kim yig'lar? Omon, omon-o, Biz g'aribga kim yig'lar? Kishi beixtiyor baxtsiz oshiq qayg'ulariga hamdard bo'ladi, uning azoblarini yengillatgisi kelib qoladiki, chinakam san'at asarining qudrati ham shundadir. Qo'shiqlarda xalqqa xos bo'lgan chechanlik, chapanilik, topqirlik, qaytmaslik singari sifatlar ham aks etadi. Bu jihatdan «Kelinoy» deb ataluvchi qo'shiq diqqatga sazovordir. Qo'shiqning qahramoni — suluvlikda ham, chaqqonlikda ham, aqlda ham tengsiz qiz. Barcha qo'shig'-u she'rlarda bo'lgani kabi uning ko'ngli kimdaligi noma'lum. Shu bois lirik qahramon unga tadbir o'rgatadi: Oy tug'adi qiroqdan, Suv tinadi buloqdan. Oshiqning bilayin, Ro'moling to'lg'a yiroqdan. Yigit suluvni ko'nglidagi maylini til bilan bo'lmasa, harakat orqali bildirishga undaydi. Keyingi badda oshiqni shuncha zor aylagan sanam tasviriga chizgilar qilinadi. Yor suvrati xalq turmush tarziga mos manzaralar fonida ko'rsatiladi: Eshik oldi g'ov palak, To'rlab yotar handalak. Yag'riniga yarashar Xolasi o'rgan jamalak. Qo'shiqning keyingi badda oshiq oromini qizning tengsiz husnigina o'g'irlamaganligi oydinlashadi: «Kelinoy o'zi alladan, Adab olgan mulladan». Qiz — kamolot sohibasi. Oshiq sanam kamoloti oldidagi hayratini yashirmaydi. Qizning har bir qiligi, amali ko'ngliga xush keladi: «Hulkar, tarozi og'adi, Kelinoy sigir sog'adi. Kelinoy soqqan sutlari Yurak ovruvga davodir». Oshiqning fikrlash yo'sini mahalliy turmush tarziga monand ekanligiga e'tibor qilish lozim: Oy tug'adi panadan, Qo'y yuradi yonadan. Senday qiz paydo bo'ldi Qanday gavhar donadan? Oyning qay yo'sin tug'ganini bilib bo'lmaydi, u hamisha uch kunlik bo'lgandan so'ng birdaniga ko'zga tashlanadi. Qo'y esa qiyalikda o'tlashni xush ko'radi. Negaki, u yerda boshqa jonivorlar

nazaridan chetda qolgan ko'katlar bo'ladi. Faqat bir umr jonliqlar bilan ish ko'rgan, qir-adirlar bag'rida, osmon kengliklarini kuzatib yashagan kishigina bu yo'sinda fikrlay biladi. Lekin bu kuzatishlar asosiy xulosani aytishga tayyorgarlik xolos. Oshiq bu qiyoslarni ma'shuqaning qanday yetuk ota-onadan tug'ilganidan ajablanganini bildirish uchun daromad yo'sinida keltiradi. Mustaqil to'rtliklardan tashkil topgan, tugal fikrni badiiy ifodalovchi, el orasida keng tarqalgan va kuylangan xalq sherlari namunalariga qo'shiq deyiladi. Qo'shiq termini keng ma'noda bo'lib, xalq she'riyati, lirik qo'shiqlar, xalq lirikasi, ashulalar degan umumiy nomlar bilan atalib kelinadi. Shu bilan birga uning konkret namunalarining o'z nomlari bor. Masalan, "Yor-yor", o'lan, lapar, terma, alla, kelin salom va boshqalar. Qo'shiklarni ijro yetuvchini - qo'shiqchi, guyanda, ashulachi, laparchi, o'lanchi deb nomlanadi. Qo'shiqlarda ham kollektivlik, og'zakilik, an'anaviylik, variantlilik kabi xususiyatlarni ko'ramiz. Ular asosan, barmoq vaznida bo'lib, ba'zan aruzda yaratilgan bo'ladi. Xalq qo'shiqlari uchun musiqiylik, ravonlik, kuylashga moslik xosdir. Qo'shiqlarda ayrim shaxsning his-hayajoni, tuyg'ulari, fikr-mulohazalari ifodalansa ham, ularda mehnatkash xalqning ichki-ruhiy kechinmalari, tirikchiligi, yashash uchun kurashi, ijtimoiy munosabatlari va tushunchalari, dunyoqarashi aks ettiriladi. Qo'shiqlar turli joylarda turlicha, ko'pchilik hollarda so'zsiz, ba'zan dutor, do'mbira, doira va boshqa sozlarda xilma-xil ohanglarda aytiladi. Qo'shiqlarning ijtimoiy mohiyati haqida tarixchi Laforg shunday deydi; "Xalq qo'shiqlari xalq ko'nglidagi qayg'u-hasrat va shodliklarning yo'ldoshi, uning bilim qomusi, uning falsafa kitobidir; qo'shiq bir xazinadirki, Xalqning ko'ngli o'z iymonini, o'zining tarixini, o'z millati tarixini bu xazinaga topshirib qo'yadi" Shunday qilib inson hayotini qo'shiqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Qo'shiq termini birinchi marta XI asrda yozilgan, ilmiy adabiyotlarning bizgacha yetib kelgan eng qadimiysi hisoblanadigan M. Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "qoshug'" shaklida berilgan bo'lib, bu so'zning izohi she'r, qasida deb ko'rsatilgan. Yu.X.Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida, XII asrda yozilgan M. Zamaxshariyning "Muqaddimatul adab" lug'atida ham

xuddi shu ma'nolarda uchramiz. O'zbek xalq qo'shiqlari shu darajada ko'p va xilma-xilki, uning barcha namunalari hali to'la ravishda o'rganilishi kerak. Mehnat qo'shiqlari, xalq she'riyatining eng avvalgi turlaridan biri bo'lib, ularning yaratilishi va ijro etilishi kishilarning mehnat jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Dehqonlar hunarmandlar ishlab turib, qo'shiq aytganlar. Qo'shiq kishilar mehnatini yengillatgan, ayrim so'zlari, undov, nidolari ko'pchilikning baravar harakat qilishini uyushtirgan. Shu sababdan qo'shiqdagi so'zlar, vazn, qofiya ixcham, takrorlanib, xayqiriq, chaqiriq yoki shikoyat, mamnunlikni bildiruvchi nidolar alohida-alohida ohangda aytilib turilgan. Mehnat qo'shiqlari mazmunan dehqonchilik, bog' va bog'chachilik, chorvachilik, ovchilik, hunarmandchilik va boshqa kasblarga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Mehnat turlari xilma-xil bo'lganidek, mehnat qo'shiqlari ham turli tumandir. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlarga qo'shchi, o'rim, xirmon yanchish, yerg'ichoq qo'shiqlari kiradi. Qo'shchi qo'shig'i. Qahraton qishdan toliqib chiqqan dehqon bahor kelishi bilan yer haydashga kirishadi. Ma'lumki, uzoq o'tmishdayer haydash ot-ulov, ho'kiz kabi hayvonlar yerdamida amalga oshirilgan. Qo'sh bilan yer haydash eng og'ir jismoniy mehnat bo'lib, bunday paytlarda dehqonlar qo'shiqlar to'qib, ularni kuylab o'zlarini ovutganlar. Dehqon ilk bahordagi nochor ahvolini ho'kiz tilidan shunday ta'riflaydi Shoxlarim bor gaz-gaz quloch, Ustida o'ynar qaldirg'och. Xayday desam, qornim och, Men qo'shga qanday yarayin O' Xo'kiz tilidan bayen qilinayetgan bu shikoyatlar hosil yetishtirilib, o'zi yarim och, yarim to'q hayet kechirayetgan dehqon hayetining yanchli manzarasini tasvirlashga xizmat qiladi. Qo'shchi qo'shiqlari bevosita qo'sh haydash paytida ijro etilganliklari uchun qo'sh qo'shiqlari deyiladi. O'rim qo'shiqlari

Ma'lumki, ilgarilari yetishtirilgan qo'l mehnati bilan o'roqlar yerdamida yig'ib olingan. O'rim payti qishloq ahli hashar yo'li bilan bir-birlariga ko'maklashganlar. Mana shunday paytlarda o'roqchilar o'zlarini ovutish uchun qo'shiqlar ijro etganlar, ular o'rim qo'shiqlari deyiladi. O'rim qo'shiqlari yakka

yeki ko'pchilik tomonidan ijro etilgan. Muhimi shundaki, o'rim qo'shiqlarida mehnatga ishtiyeq, ko'tarinki kayfiyat ruhi yetakchilik qiladi.

O'rog'im olmos, O'rimdan qolmas. Sira ham tolmas, O'rmasam bo'lmas. Ayrim o'rim qo'shiqlarida mehnat quollariga, dehqonning o'z qo'lga murojaat qilishi, o'roqning o'tkirligidan, qo'lining charchoq bilmasligidan mamnunlik holatlari kuylanadi. Bunday qo'shiqlar tinim bilmay mehnat qilayotgan o'roqchilarning kuchiga-kuch, g'ayratiga-g'ayrat qo'shadi. Xo'p-mayda. Xirmon yanchish paytida dehqonlar tomonidan aytiladigan qo'shiqlar xo'p-mayda yeki maydagul deb yuritiladi. Xo'p-mayda baland ovoz bilan cho'zib aytiladi. Ularda dehqonning hosilini yig'ishtirish, ro'zg'or-tirikchilikni ta'minlashga intilish, ho'kizning dehqon hayetida katta o'rin tutishi va unga bo'lgan muhabbatini tasvirlash bilan ko'rsatiladi. "Ko'zlaring yengan chiroq", "ko'zlaring bor oynaday", "shoxlaring bor chamberak" kabi jonlantirilgan tasvirlarning dehqon tilida aytilishida ajib hikmat bor. Ish hayvoni uning madadkori, suyangan tog'i tirikchiligi, ro'zg'orining butligi, ochligi va to'qligi - barchasi shunga bog'liq. Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari Markaziy Osiye xalqlari, jumladan, o'zbeklar ham qadim-qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelganlar. Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari-mehnat turiga, ijro etilish tarzi va bajargan vazifalariga ko'ra rang-barang bo'lib, ulardan eng asosiylari-sog'im qo'shiqlari, turey-turey qo'shiqlari va churiyalardir. Bunday qo'shiqlarning asosiy vazifasi mayin va ravon ohangda cho'zib aytiladigan qo'shiq ritmi orqali sog'ilayotgan sigirni tinchlantirish, ko'proq sog'ib olishdan iborat.

Xunarmandchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari O'zbek xalq qo'shiqlari orasida hunarmandchilik qo'shiqlari salmoqli o'rin egallaydi. Bunday qo'shiqlarda hunarmand yeki kosibning uzoq tarixiy sharoitlardagi moddiy va ma'naviy hayeti, ichki ruhiy kayfiyati ibtidoiy ish quollari tufayli tug'ilgan mehnat mashaqqati bilan qo'shilib tasvirlanadi. Xunarmandchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari orasida urchuq, charx yigirish, o'rmak o'rish, kashta tikish,

to'n tikish, gilam va bo'z to'qish bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari katta o'rin egallaydi. Ularda hunarmandning og'ir hayeti, mashaqqatli mehnati va ruhiy olami aks etadi. Ip yigirish, kashta va to'n tikish, gilam to'qish kabi mehnat turlari asosan ayellar mehnati hisoblanadi. Shuning uchun ham Xotin-qizlar tomonidan yaratilib, bevosita ular tomonidan ijro etilgan. Charx qo'shiqlari.

Charxginam guv-guv etadi,

Dukkinam to'lmasmikan.

Oyu yilda bir bozor,

Nimcha ip chiqmasmikan

Charx yigirib-charx yigirib,

Shu qo'lginam toladur,

Agar shuni yigirmasam,

Bolalar och qoladur.

Charx ip yigirishning ibtidoiy qurolidir. Unumsiz bu mehnat turi kishidan ham jismoniy, ham ma'naviy kuch, sabr-chidam talab etadi. Shuning uchun ham charx yigirish paytida aytiladigan qo'shiqlarda o'zbek ayelining og'ir hayeti orzu havasi dil dardlari butun murakkabligi bilan aks etgan. Boshqa mehnat qo'shiqlaridek, charx qo'shiqlari ham 4 misradan iborat bo'ladi. Bo'zchi aytgan qo'shiqda jafoli, unumsiz mehnat bo'zchilik hunarining g'oyat og'irligi, buning ustiga to'qilgan bo'zi sotilmay muhtojlik motivlari ravshan ko'rinib turadi. Xalqda "Bo'zchi belboqqa yelchimas", degan maqol ham bekorga aytilmagan. Mehnat jarayenini aks ettiradigan ananaviy qo'shiqlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bajariladigan mehnat ritmi qo'shiq ohangi bilan ichki bog'liqlikka ega, mehnat ritmi qo'shiq ohangini belgilaydi.

Mehnat qo'shiqlari xalq sheriyaatining eng qadimiy shakllaridan bo'lib, bu sheriyaat ibtidoiy insonning mehnat faoliyati bilan bevosita aloqadorlikda

vujudga kelgan. Albatta, qadimiy mehnat qo'shiqlari vazn, qofiya va boshqa badiiy xususiyatlari jihatidan mukammal emas. Ulardagi so'zlar ham ongli tarzda o'ylab qo'llanilmagan bo'lib, ular mehnat jarayenidagi harakat ritmiga mos keluvchi xitob va nidolardir.

Mehnat qo'shiqlari rang-barang mustaqil janrlardan tashkil topgan bo'lsalar ham, biroq ularni bir turkum doirasida ushlab turuvchi xususiyatlar ham mavjud.

Ular quyidagilardan iborat;

1. Mehnat turlari ularda ijro etiladigan qo'shiqlar bevosita ana shu mehnat turi jarayenida ijro etiladi. ularning ijrochilari ham ijodkorlari ham mehnat jarayenini

tashkil etuvchi kishilar hisoblanadi.

2. Mehnat qo'shiqlari matnida muayyan mehnat turi, unda ishlatiladigan asbob yoki boshqa vositalar ularga murojaat motivlari ko'rinadi.

3. Mehnat qo'shiqlari oddiy tilda, murakkab o'xshatish va ifodalarsiz, yengil ohang, to'liq qofiyalar vositasida yaratiladi. Ularda ramzlar, mano ko'chimplari uchramaydi. Insonning yashash va hayet kechirish tarzi, yilning 4 fasli, mehnat oylari, bayramlar, urf odatlar, marosimlar, mavsumiy ish harakatlar bilan bog'liq ravishda juda ko'p qo'shiqlar yaratilgan. Marosimlar, odatlar turli tuman bo'lganidek, bularga bag'ishlangan qo'shiqlar ham xilma-xildir. Boychechakning ochilishi, yangi yil navro'zning kirib kelishi, xirmon quvonchi kabi voqealarga qo'shiq bag'ishlangan. Qo'shiqlar xalqning oila bayramlarini, marosimlarini bezab kelgan. ALLA - bolalarni uxlatish vaqtida onalar tomonidan kuylangan qo'shiqlar alla deb ataladi. O'tmish alla qo'shiqlarida zahmatkash, mushtipar, ezilgan mazlum sharq onasi obrazi gavdalanadi. Uning betinim xatti-harakati, beminnat mehnati tufayli go'dak ulg'ayadi, voyaga yetadi. Onaning mehri dare deyilar, allalarda onalarga xos bag'ri kenglik quyeshday mehribonlik, dil

qaridan sizib chiqqan yeqimli kuylarda taraladi. Ularda ezgu orzu-havaslar, yaxshi niyatlar, onaning bola kelajagi haqidagi orzu o'ylari chiroyli tasviriy buyeqlarda kuylanadi. Alla naqoratlarida beshik yeki belanchaklarda yetgan bolaning nomi qo'shib aytiladi.

Qo'shiqni onaning o'zi, cholg'u asbobisiz aytadi. Ona uchun farzand hamma narsadan ulug', qadirli, shirin, aziz shuning uchun uni darelarning tubidan topib olgan gavharim, deya ardoqlaydi, suyadi.

Senga kuydim yaxshi ot, alla,

Yaxshi niyatdir murod alla.

Yurtu elga suyansang, alla,

Senga bulg'usi qanot, alla.

Ona o'z farzandi - jigar porasining kelajakda baxtli-saodatli bo'lishini orzuqilarkan, uning sog'lom, pahlavon arslon bilakli bo'lib o'sishini istaydi. Allalarning kuylovchisi ham yaratuvchisi ham onalardir. Allalar asosantortliklardan iborat bo'lib, har turtlik so'ngida ikki satr bir xilda takrorlanadi. "Eramozon". Turli urf-odatlar, marosim va irimlar bilan bog'liq bir qancha qo'shiqlar yaratilganki, bunga "Eramozon", "Barot keldi", "Safar kochdi", "Bukabukoviy", "Boychechak" kabilarni ko'rsatish mumkin. Shulardan "Eramozon" eskiyil kalendaridagi ramazon oyida bolalarning hovlima-hovli yurib aytadigan qo'shiqlari. Ularda xonadon egasiga farzand ko'rish haqida istaklar, ularning saxiy bo'lishi kabi motivlar ustun bo'ladi. To'y - juda qadim zamonlardan beri kishilar hayetida juda muhim voqea bo'lib kelgan. Xalqning manaviy boyligi to'y tamosholarda namoyen bo'lgan. To'y

marosimlari- uylanish to'yi, yesh to'yi, beshik to'yi kabi xilma-xil bo'lganidek,

uning qo'shiqlari ham turli tumandir. "Er-erlar" qiz uzatar kechasida aytiladigan qo'shiqlardan biridir. Ularning musiqiyliigi, ko'pchilik bo'lib aytilishi bilan ajralib

turadi. Ularda asosan, qizo'stirgan ota-onaning tarifi, orzulari, uzatilayotgan qizning madhiyasi-go'zalligi,chevarligi, qizga nasihatlar, unib o'sishi, serfarzand bo'lishi haqidagi tilaklartashkil qiladi. "Er-erlar"da nozik yumor, ba'zan satirik elementlar kinoyali kulgigasabab bo'ladi. Bunday qo'shiqni kuyevning uyiga qiz uzatib borgan yangalar

aytishadi. "Er-er"larda kuyev tomon hazilomuz tanqid qilinadi.LAPAR - nikoh to'ylarida qizning uyida kechqurun o'tkaziladigan "qizoqshomi", "qizlar majlisi", "kiz oshi", "lapar kechasi" deb ataladigan bazmlardalapar aytiladi. Qizlar bilan yigitlar tarafma-taraf turib, oshiqona g'azal-baytlar aytishganda, xuddi so'z bilan tortishmashoq o'ynaganday bo'ladi. Bu bazmdaqizlar bilan yigitlar tomonidan ikki kishi sal oldinga chiqib lapar aytishadi.Odatda, to'yga atab qizning otasi ikki-uch juft kavush olib qo'yadi. Lapar aytuvchishulardan birini ushlab turib lapar boshlaydi va qizlar to'dasidagi laparchi qizgauzatadi. Ular esa qaytib yigitlarga uzatadi, shu tariqa o'rtaga yangi laparchilarchiqaveradi.

Lapar ko'pincha hazil-mutoyiba, piching, qochiriq, ramz, noz-karashma, alam,shama qilish, iztirob, quvonch, g'oyat go'zal teran, murakkab ruhiy kechinmalar,his-hayajonlar musikiy satrlarda ifodalangan. Laparlar ham asosan, to'rtliklardantashkil topib, voqeabandligi, dialog shaklida ikki tomon bo'lib ijro etilishi bilanxarakterlanad.- kelinchakni kuyevning yaqin qarindoshlari bilan tanishtirish marosimida kelin salom yeki betochar qo'shiqlari aytiladi. Xalqimizda

salomnomalar an'anaviy tarzda bo'ladi. Avval yagona xudo nomiga, keyin bobolari, otalari, onalari, akalari, yaqinlari, do'stlari, ammalari, xolalariga salomberganda, ta'rif-tavsiflar orasida hazilnoma gaplar qo'shib-chatib aytiladi. Bundanhamma miriqib kuladilar, lekin hech kim xafa bo'lmaydi.

## **1.2.Xalq qo'shiqlarining tarixiy asoslari va badiiyati**

Qo'shiqlar yaratilishi va ijrosiga ko'ra, doimo xalq og'zaki ijodining eng ommaviy, tarqalishiga ko'ra, eng faol, qadriyatiga ko'ra, eng suyumli namunalari bo'lib kelgan. Qo'shiq, lirik turning qalbi hissiyot bo'lib, u, avvalo, qalbimizga ta'sir etishi bilan ahamiyatlidir. Dunyoqarash, tushunchalar, vazn, ohang, turli badiiy ko'chimlar hissiyotlarni ifodalovchi va biri-birimizga yetkazuvchi vositalardir. Qo'shiqda so'z ojizlik qilsa, ohang uni quvvatlaydi, ohang ham etkazaolmagan tuyg'ularni o'z xayolotimiz tug'diradi. So'z, ohang, xayolot birligi qo'shiqlarni tengsiz yuksaklikka ko'targan mo'jizalardir. Hayotda fan ham, iqtisod ham, sa'natning boshqa turlari, hatto so'z san'atining o'zi ham qo'shiqning o'rnini bosa olmaydi. Chunki ularning birovida so'z bulsa, ohang yuq, ohang bulsa, so'z yuq, har ikkalasi bo'lsa, xayolot yo'q. Shu bois qo'shiq ongi, bilimi darajasi, kasbu koridan qat'iy nazar hammaga ta'sir qiladi.

Insonni o'rab olgan tabiat turli ohanglarga — qushlarning sayrashi, yaproqlarning shitirlashi, jilg'ularning jildirashi va boshqa navolarga boyki, ularga so'z va xayolot qo'shilsa, qo'shiq paydo bo'ladi-qo'yadi.

Xalq qo'shig'i adabiy qo'shiqdan farqli ravishda tarixan magik ritual ahamiyatga ega bo'lib, maishiy-etnofafik hodisadan badiiy-estetik hodisaga aylanguncha uzoq tadrijiy yo'lni bosib o'tgan. Biroq xalq qo'shiqlari nafaqat uzoq tarixiy jarayon mahsuli, balki tabiat bag'rida yashayotgan inson ruhiyatining har kunlik mevasi hamdir. arixiy asoslariga ko'ra, qadimiy inonch-tasavvurlar, ayniqsa, hosiddorlik kultrlari, xalq marosimlari, irimlari, kundalik maishiy turmush bilan uzviy bog'langan, kuy va raqslar bilan birga paydo bulib, kuy bilan munosabatini barqaror saqlab qolgan, lirik xarakterdagi she'riy sa'nat turi namunalariga xalq qo'shig'i deymiz.

Lirika badiiy adabiyotning har ikkala formasi — ogʻzaki va yozma ijodga xos adabiy turdir. Biroq ular oʻrtasida umumiyliklar bilan birga jiddiy farqlar ham mavjud. «Lirik asarda, - deydi I.Sulton, - dunyo ijodchining ichki dunyosi orqaligina oʻz ifodasini topadi .203 - B.255). Yozma va ogʻzaki adabiyotdagi lirik tur namunalari she'riy shakl, ritmga asoslangani bilan ham oʻxshashdirlar. Ritm ogʻzaki lirikaning ham, yozma poeziyaning ham eng dastlabki, eng tabiiy, eng tarixiy va eng doimiy asosidir.

Uzoq ajdodlarimiz ham ritmni kaosni kosmosga aylantirgan kuch, koinot tartibining voqe boʻlishi, hayot asosi va manguligiga kafolat deb bilganlar . Yozma adabiyotdagi lirik tur spesifikasi Aristotel davridan to bizling kunlarimizgacha har tomonlama oʻrganilib kelingan. Shu sababli biz bu oʻrinda xalq lirikasining doimiy belgilari va uning adabiy lirik turdan farqlarigagina toʻxtalamiz. Xalq lirikasi dastlab folklorga xos ogʻzakilik, jamoaviylik, anʼanaviylik, variantlilik qonuniyatlari bilan adabiy lirik turdan jiddiy farqlanadi. Qoʻshiq kollektiv ijod mahsulidir. Ammo bu xalq orasida yetuk professional xalq qoʻshiqchilari boʻlganligini, anʼanaviy qoʻshiqlar koʻp jihatdan ana shular tufayli bizgacha etib kelganligini inkor qilmaydi. Muhimi shundaki, professional xalq qoʻshiqchilari qanchalik talantli, badihagoʻy boʻlmasinlar, anʼana qonuniyatlariga boʻysunganlar.

«Jamoaviylik shaxsiy ijodkorlik imkoniyatini inkor qilmaydi, - deydi yirik folklor nazariyachisi V.Ye. Gusev, -aksincha, uni zaruriy dastlabki shart sifatida qamrab oladi». Haqiqatdan ham tomchilardan jilgʻalar, jilgʻalardan daryolar paydo buladi.

Biroq daryodan bir hovuch yoki bir ariq suv ajratib, bu falon jilgʻaning suvi deyish mumkin bulmaganidek, anʼanaviy xalq qoʻshigʻining bir bandi yoki toʻplamini biror indiviual ijodkorga nisbat berish qiyin. Ammo bu ijodkor, albatta, boʻlgan. Xalq qoʻshigʻi ana shunday kollektiv ijod mahsuli boʻlganligi uchun lirikaning bosh qahramoni lirik «men» ham oʻz xarakteri jihatidan yozma

va ogʻzaki adabiyotda sezilarli farqlanadi. Yozma adabiyotdagi lirik «men»ning qalb dunyosi, bilimi, dunyoqarashi qanchalik boy bulmasin, u albatta biror qirradi bilan ijodkor shaxsiyati bilan, xalq qoʻshigʻidagi «men» kollektiv, xalq bilan bogʻlanadi. D.S.Lixachev aytganidek, xalq qoʻshigʻining lirik qahramoni ijrochining uzi, ayni paytda tinglovchi hamdir. Shu sababli xalq lirikasining lirik obrazlari umumlashgan tip darajasiga koʻtarilgan va har bir janrning yyetakchi lirik qahramonlari mavjud. Bular: yor-yorlardagi kelin-kuyov, allalardagi ona-bola, mehnat qoʻshiqlaridagi mehnatkash, bolalar qoʻshiqlaridagi bolalar, lirik qoʻshiqlardagi oshiq-maʼshuq va eru xotin obrazlaridir.

Xalq lirikasida sevgi mavzui va xotin-qizlar obrazi yyetakchi ahamiyat kasb etgan. Bunga sabab ham xotin-qizlarning tabiatan hissiyotga boyligi va tarixan oilaviy-maishiy marosimlarda yetakchi oʻrin tutganligidadir.

Adabiy lirik turdan farqli ravishda xalq qoʻshiqlarining ramzlar tizimi, maishiy turmushni poetiklashtiruvi, badiiy tasvir vositalari, hatto lirik qahramonning dunyoqarashi, qalb kechinmalari ham anʼanaviy xarakterga ega boʻladi.

Masalan, xalq lirikasida qizil sifatlashi hech qachonlarga nisbatan qoʻllanmaydi. Agar qoʻllangan boʻlsa, u xalq qoʻshigʻi emas, yoki anʼana buzilgan, sunʼiy oʻzgartirilgan qoʻshiqdir. Qoʻshiqlarning yana bir muhim xususiyati ularning tarixiy genezisi bilan bogʻliq. Xalq lirikasining tarixiy asosida xalqning qadim tassavurlari, marosimlari, irimlari muhim oʻrin tutgan holda, adabiy lirik turga nisbatan bu fikrni ayta olmaymiz. Yozma lirikada ham aytilgan hodisalar unsurlari uchrashi mumkin. Bu esa folklorizmlar masalasi bilan bogʻliq.

Rus folklorshunosi Yu.G.Kruglov: «Xalq lirikasi marosim zaminida paydo boʻlgan», -deydi. (14. — S.257). Chindan ham marosim lirikasi nomarosim lirikaga nisbatan qadimiyroqdir. Biroq bu marosimlarning ham xalqning anʼanaviy dunyoqarashi, magik-mifologik tasavvurlar hosilasi ekanligini unutmazlik kerak. Xalq lirikasidagi biror poetik obraz yoki nomarosim lirika

janri marosim vositasida, yoki bevosita xalq ongida mavjud tasavvur, inonchlarning qayta poetik idroki mahsuli ekanligini ham nazarda tutish lozim.

Xalqning an'anaviy dunyoqarashi, urf-odat, irimlari haqida so'z ketar ekan, barcha an'anaviy qo'shiqlarning genezisida ana shu hodisalar yotadi deb o'ylash kerak emas. Qo'shiqning asosida maishiy turmushda kundalik va doimiy takrorlanib turuvchi hodisalar, inson kechinmalari, tashvishlari, real voqelikka munosabati ham turishi mumkin. Masalan:

**Tup qayrag'och tagida,**

**Tup o'ynagan etimlar.**

**Ota-onam kelar deb,**

**Yo'l poylagan yetimlar.**

Qo'shiq an'anaviy barmoq vaznlaridan biri - yettilik bo'g'inda yaratilgan. Tilda sinonimiya deb yuritiladigan hodisadan ma'no tovlanishlarini ifodalashda foydalanilgan. Ya'ni tup — miqdor, tup narsani anglatib kelmoqda.

Qayrag'och O'zbekiston shahar va qishloqlarida ilgari juda ko'p ekilgan va yozda uning soyasidan foydalanganlar. Yetimlarning bir necha qayrag'och tagida uynashlari ilgari ham, hozir ham bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy manzara. Qo'shiqda lirik qahramonning etimlarga achinish hissi ifodalangan. Bu ma'no etimlar, yul poylagan so'zlariga yuklatilgan. Hozir ham yetimxona — mehribonlik uyi yonidan o'tib qolgan biror xalq qo'shig'i bilimdoni yodiga ana shu an'anaviy qo'shiq kelishi mumkin. Genezisi qadim tasavvurlar, xalq marosimlari, irimlari, tarixiy-maishiy turmushi bilan qanchalik bog'liq bo'lmasin, qo'shiq xalqning biron-bir ma'ri-fiy, maishiy, ma'naviy ehtiyojiga javob bermasa, bizning kunlarimizgacha etib kelmas edi.

Aslini olganda hayotning o'zi an'anaviydir. Tug'ilish, yashash, o'lim — inson umri, bahor, yoz, kuz, qish — tabiat an'analaridir. Shu sababli ham insoniyat

o'zining o'tmishini unuta olmaydi va magik-mifologik tafakkur rudimentslari bizgacha etib kelgan. An'ana inson umri va uning ijodining ilohiy yashash formasidir. Ananaviy marosimlar bilan bog'liq bo'lmagan lirik paydo bo'lishini ayrim mutaxassislar feodalizmga bo'lgan davr, ba'zilar feodalizm bilan bog'laydilar. (14. —S.257). Mustaqil lirik qo'shiqlarning janr sifatidagi paydo bo'lishi, shubhasiz, tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlariga xosdir. «Chunki lirika inson o'z shaxsini tanigan, o'zini shaxs sifatida anglagach, o'zini olam ichra yana bir olam deb bilgan va tashqi ob'ektiv olamga yangicha qaragan sharoitlarda paydo bo'ladi» (5. T.2. -B.237). Ammo bu ta'rif og'zaki lirikaning paydo bo'lishini to'la ta'riflay olmaydi. Sababi yuqorida aytilganidek, xalq qo'shig'ining lirik qahramoni umumlashma tipligi, an'anaviy poetik tafakkur mevasi ekanligidadir. Aytaylik, yor-yorlarda kelinchak haqida juda ko'p kuylashadi. Bu maqtoqlar, tilaklar ayni paytdagi kelinchakka ham, uning bir paytlar kelin bo'lgan buvisiga ham, kelajakda kelin bo'ladigan nevarasiga ham taallukdidir.

Xalq lirikasining kadim tassavurlar, marosimlar bilan bog'liqligi uning juda qadimiyligini ko'rsatadi..

An'naviy dunyoqarashda kishilar o'z urug'i, qabilasidan boshqa kishilarni butunlay begona olam vakilari deb tushunganlar. Yor-yor qo'shiqlarida kuyov tomonning yot dunyo vakillari deb bilinishi ham ana shuning hosilasidir. Bizningcha, xalq lirikasining kurtaklari insonning o'zini va urug'doshlarini bir olam vakillari deb tushungan davrlar, totemistik inonchlar tug'ilgan paytlar bilan bog'liq. Xalq lirikasining o'ziga xosligi uning genezisida ham ko'rinadi. Qo'shiqlarning tarixiy ildizlari haqida so'z ketar ekan, folklor tadqiqotchisi oldida xalqning ko'p aetrik tarixiy jarayonlar davomida magik-mifologik dunyoqarashidan poetik tafakkurga, qo'shiqlarning maishiy-etnografik hodisadan badiiy-estetik hodisaga aylanishi tadrijini kursatib berish masalasi paydo buladi.

Bu juda jiddiy va ko‘plab tadqiqotlar natijasida hal etiladigan vazifadir. «Veselovskiy ishlarida, — deydi I.K.Gorskiy, — noestetik hodisalarning estetik hodisalarga o‘tishi masalasi ochilmay qolgan»(44.— S. 18). Poetik tafakkurning paydo bo‘lishi, taraqqiyoti masalalari keyinchalik ko‘pgina olimlar tomonidan ma’lum darajada hal etildi, ammo nihoyasiga etgani yuq.(48; 62; 63; 124; 136; 171 va h.z.). Biz ko‘rib chiqqan adabiyotlarga asosan xalq lirikasining paydo bulishi va rivojini quyidagicha ko‘rsatish mumkin: magik-mifologik tafakkur, marosimlar, mifologik-poetik tafakkur - poetik tafakkur. Qayd etib utish lozimki, sof mifologik tafakkur mahsuli bulgan asarlarda poetik tafakkur elimentlari bo‘lganidek, sof poetik asarlarda mifologik tafakkur izlari sezilib turadi. Shu boisdan, an’anaviy xalq lirikasining namunalari mifologik-poetik va poetik tafakkur mevalaridir. Tafakkurning yuqoridagi bosqichlari o‘rtasida juda ko‘p asrlar utgan. Har bir bosqichda xalq qayta-qayta mushohada qilgan. Shu bilan birgalikda mifologik tafakkur elementlari ham saqlanib qolgan.

Xalq maishiy turmushida hozirgacha mavjud bulgan ko‘pgina marosimlar, urf-odat, irimlar magik-mifologik tafakkurning transformasiyaga uchragan ko‘rinishlari bulib, ularxalq lirikasida ham o‘z poetik ifodalarini topgan.

«.. har bir etnografik fakt, — deydi P.G. Bogatrev, - biron — bir magik, estetik yoki boshqa vazifaga ega. Bu vazifalar ko‘pincha biri ikkinchisiga o‘tadi, rol almashadi. Masalan, magik vazifa estetikaga o‘tishi mumkin va h.z.». Misol uchun ko‘pgina jahon xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi hayotida ham mavjud bo‘lgan, hozirgacha ma’lum darajada mavjud bo‘lib kelayotgan qalin etnografik detalini ko‘rib chiqaylik: Qalin olish tarixan urug‘ning yaxlitligi, mulkini saqlab qolish, yangi oilaning moddiy poydevorini yaratish maqsadlariga qaratilgani uchun juda yashovchan odat bo‘lib keldi. U xalq qo‘shig‘ida shunday ifodalangan:

**Ot bog‘ladim xariga,**

**Xaridan ham nariga.**

**Otam meni sotdilar,**

**O‘zidan ham qariga.**

Qo‘shiq ijrochisining noroziligi otaning uni sotgani uchun emas, balki zidan ham qariga uzatganidadir. qo‘shiqdagi sotish so‘zini savdodagi olish-sotish tushunchasi bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Chunki qo‘shiq tili poetik ko‘chimlarga boy bo‘lgan o‘ziga xos hodisadir. Buning isboti sifatida mana bu qo‘shiqqa diqqat qiling:

**Qoshingning qorasi yuvsa ketarmi,**

**Seningdek toza gul bog‘da bitarmi?**

**Seningdek toza gul bog‘larda bitsa,**

**So‘rab borsam, bog‘bon menga sotarmi?**

Xalq qo‘shig‘i tabiatiga ko‘ra qora qosh — go‘zallik, toza gul - balog‘atga etgan bokira qiz, bog‘ — oila, bog‘bon-oila boshlig‘i, ya'ni otaning poetik obrazlaridir. Agar sotib olish ma'nosini savdodagi kabi mol yoki buyum xarid qilish deb tushunsak, yigitning qizga sotilsang, sotib olardim, deyishi o‘ta xunuk bo‘lardi. Shuning uchun yigitning murojaatini oddiy tilga: «Sen toza gulday bokira, balog‘atga etibsan, urf-odatimizdagi qalinni to‘lasam, otang rozi bo‘larmikan?»— deb ag‘darish mumkin. Qalin odati hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqani uchun u ayrim kishilar talqin qilganidek, xotin-qizlarni molday sotish ramzi emas, urfiy shart hisoblangan. Shuning uchun qo‘shiqlarda xotin-qizlar ham bu odatni ma'qullagan:

**Tayg‘anchoqga ot solganda toyishadi,**

**Ustidagi egar-jabduq mayishadi.**

**Qiz tanlashga elimizga nega kelding,**

**Qalin uchun qovurg‘ang qayishadi.**

Xalq lirikasi namunalari urf-odatlar bilan bog‘liqligi mana bu qo‘shiqda ham ko‘rinadi:

**Toqqa chiqdim tarasha,**

**Qoralar zulfim yarashar.**

**Bizga kelgan sovchilar,**

**Ot ustidan qarashar.**

O‘tmishda ham hozirgidek qizlarga sovchi kelishi tabiiy bo‘lganidek, ularning otda kelishi ham odat sanalgan. Otsiz sovchi qiz bola uchun ham, yigit tomon uchun ham nomus hisoblangan. Etnografik detalning badiiy-estetik hodisaga aylanishi ko‘pgina xalq maqollari uchun ham xos xususiyatdir. Masalan: «Qizlik uyga qirq ot bog‘lanar» maqoli bor. Bu qiz bolaga ko‘p sovchi kelishi mumkin degan fikrning badiiy ifodasidir. Misollarimizdagi ot obrazi esa ham xalq odati, ham ot kulti bilan bog‘liq.

Ko‘rinib turibdiki, xalq maishiy turmushidagi qalin, sovchi, sovchilikga otda borish etnografik faktlari xalq lirikasida sotish, qizlik uyga qirq, ya'ni ko‘p ot bog‘lanishi poetik ko‘chimlariga aylanib, magik-utilitar funksiyadan o‘sib, badiiy-estetik ahamiyat kasb etgan. Yana bir misol:

**Chimildig‘ing chip-chinor,**

**Bo‘ying chinor, yor-yor.**

**Buyingga kuz temasin,**

**Olay tumor, yor-yor.**

Chimildiq — kelin-kuyovni magik himoya kilish, ularning baxtli, serfarzand bo‘lishi uchun yasalgan ritual buyum. Chinor — uzoq umr, chinorday bo‘y — go‘zallik ramzi. Tinglovchi qo‘shiqning ma‘lum takror, ko‘chimlar, vazn va qofii tuzilishlaridan ham zavq olishi mumkin. Bu qo‘shiqning badiiy-estetik

hodisaligidandir. Ammo o'zbek xalqining chimildiq, chinor haqidagi tassavurlari ko'z magiyasiga inonchi, tumor etnografik detalidan bexabar kishi bu qo'shiqni umuman tushunmaydi. Mobodo qo'shiqni o'zga tilga tarjima qilinsa, uning uchun, albatta tarixiy, etnografik izohlar berish shart bo'ladi. Qo'shiqni tarixiy asoslariga ko'ra shunday tahlil qilish mumkin: Go'zal kelinchak bo'libsan (chinor va chimildiq) go'zalligingga yomon ko'z tegib, baxtsiz bo'lib qolmagin, maxsus kishilardan tumor yasatib, taqib qo'yay.

Xalqning chinor haqidagi tasavvurlari, ko'z magiyasiga inonchi mazkur qo'shiqning tarixiy asosidir.

Bolalarning qo'shiq mashqlarini bajarishi orqali lug'at boyligi o'sib borishi bilan birga, so'zlarni bir-biriga moslashtirish, ularni o'z o'rnida qo'llay bilish malakasi o'sadi. Bola zerikmasligi, toliqmasligi uchun o'qituvchi albatta belgilangan vaqtda jismoniy tarbiya mashqlarini o'tkazishi kerak. Bunda qo'shiqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu bolalarni charchashdan saqlaydi, ongini rivojlantiradi, nutqini faollashtiradi. Qo'shiq jarayonida o'qituvchi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishi, tovushlarni bir-biridan farqlashlariga e'tibor berishi, bolalar nutqini doim kuzatib borishi va xatolarni tuzatib borishi lozim. Bolalarning davlat tili bo'lgan o'zbek tilini egallashlariga yordam beradi, tilimizga muhabbat uyg'otadi. Ma'lumki, nutq faoliyatiga ruhan yondashsak, fikr bayon qilish jarayoni bir necha bosqichdan iborat ekanini ko'ramiz. Bu bosqichlar so'z va jumlar orqali suhbatdoshga yetkaziladigan fikr, unga iltimos qilish, buyruq berish, uning fikrini ma'qullash yoki unga e'tiroz bildirish, uni ishontirish, gapini inkor qilish kabilar tarzida namoyon bo'ladi. Mavjud hayotiy vaziyatda taxmin, maqsad va niyat tabiiy muloqot tarzida amalga oshadi Bolalar qo'shiqining o'ziga xosligi shundaki, u amalda bajara olmaydigan istaklarni xayolda amalga oshiradi. Qo'shiq bolalarning diqqatini bir joyga to'plashda yordam beradi. Bola mavjud hayotda hali uddalay olmaydigan narsalarni ham qo'shiq jarayonida uddalashga harakat qiladi. Bunda bolalar o'z-o'zini boshqarishni o'rgana boradi. Bugungi kunda qo'shiqlar

amaliyotda keng qo'llansa ham, ilmiy-metodik nuqtai nazardan yetarlicha ishlab chiqilmagan. Tilni didaktik qo'shiqlar yordamida o'rgatish ham bolaning tilga, ya'ni xayoliy vaziyatga kirishga intilishi, qo'shiq vaziyatiga qarab harakat qilishiga asoslanadi. Bolani qo'shiqqa, qo'shiq orqali til o'rganishga qiziqtirishda ko'rgazmali qurollar katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda qo'shiqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Agar qo'shiqda tovushlar, so'zlar va nutq qurilmalarining ma'nosini anglash uchun yaxshi sharoit bo'lsa, bolalar ularni puxta o'zlashtiradi. Chunonchi, qo'shiqlar yordamida bola talaffuz ko'nikmalarini egallab boradi.

Maxsus qo'shiqlar davomida bola o'zbekcha nutqni eshitib, to'g'ri talaffuz qilishga o'rganadi va kundalik muomalaga oid iboralarning ham ohangini o'zlashtirib oladi. Qo'shiqlar lug'atga kiritilgan so'zlarning ma'nosini yaxshiroq tushunishga, ularni mustahkamlash va faollashtirishga yordam beradi. Qo'shiq jarayonida kichkintoylarning so'z boyligi ortib boradi va ular yangi kiritilgan so'zlarni o'zlashtirilgan so'zlar bilan bog'lab, ularni nutqda qo'llashga harakat qiladilar.

O'yin-qo'shiq jarayonida bolalarning shaxsi takomillashadi, odamlar bilan muomala, o'quv va mehnat jarayoniga tayyorlanish kabi turli ruhiy holatlari shakllanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bog'chalarning tarbiyalanuvchilari orasida ko'p bolalar oddiy o'yin- qo'shiqlar o'ynashga moyil bo'ladi.

O'yin- qo'shiqlar bolalarning har tomonlama yetuk rivojlanishlariga yordam beradi. Har bir qo'shiq bolalar hayotiga yaqin bo'lsa, ularning hayotidan lavhalar ifodalashga qaratilgan bo'lsa, o'ynash natijasida bolalar qiziqishi ortadi. Aks holda qo'shiqdan kuzatilgan maqsadga erishish qiyin. Bunda o'qituvchi bolaga yangi predmetning nomi va mohiyatini tushuntirishi lozim.

**"Biz quvnoq bolalar" qo'shiqi.** Bunda maydon chegaralaridan 2—3 metr masofada ikkita chiziq o'tkaziladi. Chiziqlar o'rtasida ovchi turadi. Bolalar chiziqning birida joylashadilar. O'qituvchi baland ovoz bilan: "Uch, to'rt!" — deydi. Bolalar bir ovozdan javob beradilar:

Biz quvnoq bolalarmiz,

Hech to‘ymaymiz qo‘shiqga.

Chopqillaymiz jon-dildan

Qani, tutib ko‘ring-a.

Bolalar maydonning boshqa tomoniga yugurib o‘tadilar, ovchi esa ularni quvlab yuguradi. Qochayotgan bola chiziqni kesib o‘tguncha ovchi unga qo‘lini tekkizib ulgursa, u tutilgan hisoblanadi va chetga o‘tib turadi. Bolalar 2—3 marta yugurib o‘tganlaridan keyin tutilganlar hisoblab chiqiladi va yangi ovchi saylanadi. Qo‘shiq shu tarzda davom etadi.

**"Qopqon" qo‘shiqi.** Bolalar ikkita teng bo‘lmagan guruhga bo‘linadilar. Kichik guruh (qo‘shiqchilarning, taxminan, uchdan biri) doira (qopqon) hosil qiladi. Qolganlar sichqon bo‘ladilar. Ular doiraning tashqarisida turadilar. Qopqonni tasvirlovchi bolalar qo‘l ushlab, doira bo‘lib yuradilar va quyidagicha ashula aytadilar:

Axir sizdan sichqonlar,

Bezor bo‘ldik biz qanchalar.

Kemirdingiz — semirdingiz

Hushyor bo‘ling, endi sizni

Qopqon qo‘yib bir yo‘la

Xo‘p beramiz dodingizni!

**"Uysiz quyon" qo‘shiqi.** Bolalar — quyonlar arg‘amchilarni dumaloqlab o‘zlariga uycha yasaydilar. O‘qituvchining ishorasi bilan quyonlar uychalaridan yugurib chiqadilar. Bir-birlarining ketidan yuguradilar va bir oyoqlab sakraydilar. Quyonlar istagan uychani egallashga shoshiladilar, lekin bir uycha yetishmaydi. Shunisi "uysiz quyon" bo‘lib qoladi. Shundan so‘ng u boshlovchi bo‘ladi. Boshlovchi shunday deydi:

Dala bo‘ylab qochar quyonlar qayga,

O‘tloqda go‘yoki boradi poyga...

Shuningdek, **"Qarmoq"** qo‘shiqi, **"Qushim boshi"**, **"Xurmacha bog‘i"** kabi milliy qo‘shiqlar ashula aytish bilan birga olib boriladi. Bunda bolalar

milliy qo‘shiqlarga taalluqli ashulalarni yod oladilar. Masalan, "Xurmacha bog‘i" qo‘shiqida:

Xurmacha bog‘i,

Ichida yog‘i.

Yog‘i mij-mij etadi,

Palov oshga ketadi.

Men palovni bilaman,

Kichik oshpaz bo‘laraan.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, harakatli qo‘shiqlar jarayonida ham bolalar og‘zaki nutqini o‘stirishga erishish mumkin. Bunda ular turli narsa, hayvon, qush-parrandalar nomini, harakatini, ovozini bilishlari bilan birga, ularga taqlid harakatlar ham qiladilar. Shuningdek, har bir qo‘shiqning o‘ziga xos qo‘shiqlarini, iboralarni qiziqish bilan yod olib, og‘zaki nutqini o‘stirib boradilar.

Ma‘lumki, o‘zbek milliy bolalar qo‘shiqlari juda ko‘p yillik tarixga ega. Qo‘shiqlarda bolalarning jismoniy jihatdan chiniqqan bo‘lishi, aqliy jihatdan ziyrak bo‘lishlari ko‘zda tutilgan. Milliy qo‘shiqlarga doir so‘z va iboralarning ishlatilishi ham alohida o‘rganishni talab qiladigan soha sanaladi. Odatda, bolalarning ko‘pgina milliy qo‘shiqlari o‘ziga xos qo‘shiqlar bilan ijro etiladi. Bunday qo‘shiq-qo‘shiqlarni rusiyzabon o‘quvchilarga o‘rgatish ancha ijobiy natija beradi. O‘zbek millatiga mansub bo‘lmagan bolalarning o‘zbek tilini oson va tez o‘rganishlariga shu xildagi qo‘shiq-qo‘shiqlarni bilish katta yordam beradi.

### **"Bog‘landi" qo‘shiq-qo‘shig‘i.**

Qo‘shiq maydoncha yoki zalda o‘tkaziladi. Bolalar qo‘l ushlab, yarim doira bo‘lib turadilar.

Darvozabon bilan bolalar o‘rtasida quyidagicha suhbat-ashula olib boriladi:

— Qo‘ylikda qo‘shiqgiz nima yeydi?

— Qo‘yimiz shulxa, o‘t, kunjara, pichan, beda yeydi (Bu javoblarni hamma bolalar barmoqlari bilan sanab aytadilar.)

- Qqo‘shiqgiz nima ichadi?
- Qo‘yimiz suv ichadi.
- Qqo‘shiqgiz nima beradi?
- Qo‘yimiz go‘sht, jun, yog‘ beradi.
- Qqo‘shiqgizni kim semirtirgan?

Bu savolga bolalar Gulnoraxon (Ahmadjon yoki Sattorxon) deb darvozabonlar yonidagi bolaning nomini aytishi kerak.

— Qqo‘shiqgizni semirtirgan Gulnoraxonga karnaymi, surnaymi, nog‘orami, childirmami?

Bolalar: — Gulnoraxonga karnay, — deyishlari bilan yarim doiraning chap tomonidan boshlab, bolalar ketma-ket yurib, o‘ng qo‘lini yuqoriroq, chap qo‘lini sal pastroq qilib karnay ovozini aytib, darvozabonlar yonidagi bolaning qo‘li tagidan egilib o‘tadilar. Kimning qo‘li tagidan o‘tilgan bo‘lsa, shu bolaning qo‘li qo‘ltig‘ida bo‘lib, bog‘lanib qoladi. Bolalar qaytib o‘z yerlariga kelgach, hamma bolalar baravar quyidagi parchani kuylaydilar (bog‘langan bolaning nomini aytib):

Bog‘landi, bog‘landi,  
Gulnoraxon bog‘landi.  
Nima uchun bog‘landi,  
Qo‘shiq uchun bog‘landi.

Bog‘langan bola qo‘shiqqa tushib berishi shart. Shundan so‘ng qo‘shiq yana qaytadan boshlanadi. Qo‘shiqning ikkinchi takrori yana ham qiziqarli o‘tishi uchun qatorning o‘rtasidagi ikki bola qo‘li tagidan o‘tadilar. O‘rtadan qo‘li bog‘langan bolani chetga chiqarib qo‘yib, yana boshqa bolalar qo‘li tagidan o‘tadilar. Qo‘shiq oxirida qo‘li bog‘langan bir necha bola o‘rtaga tushib o‘ynaydi. Qo‘shiq qoidalari quyidagicha belgilanadi:

1. Darvozabonlarning savollariga hamma bolalar baravar javob berishlari kerak.
2. Qo‘shiqda aytilgan cholg‘u asboblarining ovozini aks ettirib, go‘yo shu asbobni chalib o‘tgan bo‘ladilar.

3. Bogʻlangan bola to qoʻshiqqa tushmaguncha qoʻlini qoʻltigʻidan tushirmaydi.

4. Oʻqituvchi qoʻshiq davomida bolalarga ham bir cholgʻu asbobini chalish, uning ovozlari toʻgʻri aks ettirishni oʻrgatib borishi lozim. Bu cholgʻu asboblari bolalarga turmushda (loaqal qoʻshiqchoq shaklida boʻlsa ham) amalda koʻrsatilgan boʻlishi kerak. Shunday qilib, qoʻshiq davomida bolalar faolligining oshuviga erishiladi. Ular chaqqon va ziyrak boʻlib, ashulalarni qiziqish bilan aytadilar. Yanada muhimi shundaki, bolalar uy hayvonlari, ularni parvarishlash, ulardan qanday mahsulot olish mumkinligini ham bilib oladilar.

Bolalarning yana ham ziyrak, hozirjavob boʻlishlari uchun savol-javoblarni bir oz chalkashtirib ham berish mumkin

(Qoʻy uchadimi? — Yoʻq, qoʻy uchmaydi, yuradi kabi).

**"Chuchvara qaynaydir-o" qoʻshiq-ashulasi.** Bolalar bir-birlarining qoʻllarini ushlab, doira boʻladilar. Soʻngra tez harakat qilib aylanadilar va kuylaydilar:

Chuchvara qaynaydir-o,

Acham menga bermaydir-o.

Bermasa, bermasin-o,

Uyimga kirmasin-o.

Elagimni olmasin-o,

Nonimni yemasin-o.

*(2 marta takrorlanadi)*

Bu qoʻshiqni oʻrgatishda ham oʻqituvchi tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilishga ahamiyat berishi kerak. Notanish soʻzlarni (acham, elagim kabi) izohlab berishi zarur.

**"Gullola" qoʻshigʻi.**

Naqorat

Bahor keldi, ochildi gullola.

Chakkalarga taqildi gullola.

Bolalar o‘ynab kuldi, gullola,  
Bo‘ling mehmon, ochilgan gullola.  
Bunisi hali g‘uncha, Chiroyli ekan buncha.  
Sabr qil ochilguncha. Gullolaxon, gullola.

Naqorat

Endi a‘lo o‘qiyman,  
Senga she‘rlar to‘qiyman.  
Barglaringda o‘ynayman,  
O‘ynay shu oy, gullola, gullola.

Naqorat

Bog‘imiz gulga to‘ldi,  
Yana ham chaman bo‘ldi.  
Ko‘klar gulga cho‘mildi,  
Gullolaxon, gullola, gullola.

Bu ashulani ham aytishda o‘qituvchi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, ayrim so‘zlar ma‘nosini tushuntirishga alohida ahamiyat berishi lozim. Bu qo‘shiq-ashulalar bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotga o‘qituvchi, ayniqsa, tortinchoq bolalarni ko‘proq jalb etishi kerak. O‘qituvchi shunday bolalarni yoniga olib, talaffuzlarini kuzatib borishi mumkin. Bolalarda tabiatga mehr uyg‘otishda o‘qituvchilarning daraxtlar, qushlar yoki boshqa narsalar haqidagi kichik she‘rlarni yod olishlari va ularning mazmunini tushuntirishlari maqsadga muvofiqdir. Qushlarning insonlarga foyda keltirishi shu kichik she‘r orqali ifodalanganini aytish zarur. Bu she‘rlarni yod oldirishdan oldin ular haqidagi rangli suratlarni ko‘rsatib, qisqa suhbat o‘tkazish kerak.

Bolalar nutqini o‘stirishda o‘zbek milliy ashulalarini o‘rgatish har jihatdan foydalidir. Shunday ashulalardan biri bahor faslida kuylanadigan "Boychechak" qo‘shig‘i bo‘lib, o‘qituvchi bu ashulani aytishni o‘rgatishdan oldin birorta boychechakni qo‘liga olib (yoki rasmini ko‘rsatib) suhbat o‘tkazadi. Avvalo o‘zi qisqacha izoh bergach, bolalarni suhbatga tortadi:

— Bolalar, rasmda nimani ko‘rib turibsiz?

- Boychechakni ko‘rib turibmiz.
- Boychechak qachon chiqar ekan?
- Boychechak bahorda chiqadi.
- Bolalar, hozir ana shu boychechak haqida ashula o‘rganamiz.

O‘qituvchi avval ashula matnini ohangi bilan aytib beradi. So‘ngra bolalarga qatorma-qator o‘rgatishga o‘tadi.

O‘qituvchi bu ashulani ota-onalarimiz, bobo-momolarimiz yoshligida aytib yurishganini eslatsa, bolalarda qiziqish yanada ortadi:

Boychechagim boylandi,  
Qozon to‘la ayroni.  
Ayroningdan bermasang,  
Qozon-tovog‘ing vayroni.  
Qattiq yerdan tatalab chiqqan boychechak,

Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak (ikki marta)

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu milliy ashulani aytishda, avvalo, bolalarga yakka-yakka aytirib, ularning talaffuzidagi xato va kamchiliklarni aniqlab, ularni tuzattirib, qayta aytirish nutq ustida ishlashning samarasini oshiradi. She’r matni ustida ishlashda ayrim so‘zlarning ma’nosini izohlash lozim.

Ko‘hna va boy tarixga, noyob madaniyat va yuksak ma’rifatga ega o‘zbek xalqining an’ana va sharqona urf-odatlari qadimiyydir .O‘zbek xalqining jahon xalqlari o‘rgansa arzigulik an’ana va milliy qadriyatlar bor. Milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qariyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq lirikasida sevgi mavzui va xotin-qizlar obrazi yetakchi ahamiyat kasb etgan. Bunga sabab ham xotin-qizlarning tabiatan hissiyotga boyligi va tarixan oilaviy-maishiy marosimlarda yetakchi o‘rin tutganligidadir.

Adabiy lirik turdan farqli ravishda xalq qo‘shiqlarining ramzlar tizimi, maishiy turmushni poetiklashtiruvchi, badiiy tasvir vositalari, hatto lirik qahramonning dunyoqarashi, qalb kechinmalari ham an’anaviy xarakterga ega bo‘ladi.

Masalan, xalq lirikasida qizil sifatlashi hech qachonlarga nisbatan qo‘llanmaydi. Agar qo‘llangan bo‘lsa, u xalq qo‘shig‘i emas, yoki an’ana bo‘zilgan, sun’iy o‘zgartirilgan qo‘shiqdir. Qo‘shiqlarning yana bir muhim xususiyati ularning tarixiy genezisi bilan bog‘liq. Xalq lirikasining tarixiy asosida xalqning qadim rassavurlari, marosimlari, irimlari muhim o‘rin tutgan holda, adabiy lirik turga nisbatan bu fikrni ayta olmaymiz. Yozma lirikada ham aytilgan hodisalar unsurlari uchrashi mumkin. Bu esa folklorizmlar masalasi bilan bog‘liq. Rus folklorshunosi Yu.G.Kruglov: «Xalq lirikasi marosim zaminida paydo bo‘lgan», -deydi. (14. — S.257). Chindan ham marosim lirikasi nomarosim lirikaga nisbatan qadimiyroqdir. Biroq bu marosimlarning ham xalqning an’anaviy dunyoqarashi, magik-mifologik tasavvurlar hosilasi ekanligini unutmaslik kerak. Xalq lirikasidagi biror poetik obraz yoki nomarosim lirika janri marosim vositasida, yoki bevosita xalq ongi-da mavjud rassavur, inonchlarning qayta poetik idroki mahsuli ekanligini ham nazarda tutish lozim.

Xalqning an’anaviy dunyoqarashi, urf-odat, irimlari haqida so‘z ketar ekan, barcha an’anaviy qo‘shiqlarning genezisida ana shu hodisalar yotadi deb o‘ylash kerak emas. Qo‘shiqning asosida maishiy turmushda kundalik va doimiy takrorlanib turuvchi hodisalar, inson kechinmalari, tashvishlari, real voqelikka munosabati ham turishi mumkin. Masalan:

Tup qayrag‘och tagida,

Tup o‘ynagan etimlar.

Ota-onam kelar deb,

Yul poylagan yetimlar.

Qo‘shiq an‘anaviy barmoq vaznlaridan biri - ettilik bo‘g‘inda yaratilgan. Tilda sinonimiya deb yuritiladigan hodisadan ma‘no tovlanishlarini ifodalashda foydalanilgan. Ya'ni tup — miqdor, tup narsani anglatib kelmoqda.

Qayrag‘och O‘zbekiston shahar va qishloqlarida ilgari juda ko‘p ekilgan va yozda uning soyasidan foydalanganlar. Yetimlarning bir necha qayrag‘och tagida uynashlari ilgari ham, hozir ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan tabiiy manzara. Qo‘shiqda lirik qahramonning yetimlarga achinish hissi ifodalangan. Bu ma‘no yetimlar, yul poylagan so‘zlariga yuklatilgan. Hozir ham yetimxona — mehribonlik uyi yonidan o‘tib qolgan biror xalq qo‘shig‘i bilimdoni yodiga ana shu an‘anaviy qo‘shiq kelishi mumkin.

Genezisi qadim tasavvurlar, xalq marosimlari, irimlari, tarixiy-maishiy turmushi bilan qanchalik bog‘liq bo‘lmasin, qo‘shiq xalqning biron-bir ma'ri-fiy, maishiy, ma'naviy ehtiyojiga javob bermasa, bizning kunlarimizgacha etib kelmas edi.

Aslini olganda hayotning o‘zi an‘anaviydir. Tug‘ilish, yashash, o‘lim — inson umri, bahor, yoz, ko‘z, qish — tabiat an‘analaridir. Shu sababli ham insoniyat o‘zining o‘tmishini unuta olmaydi va magik-mifologik tafakkur rudimentlari bizgacha etib kelgan. An‘ana inson umri va uning ijodining ilohiy yashash formasidir. Ananaviy marosimlar bilan bog‘liq bo‘lmagan lirik paydo bo‘lishini ayrim mutaxassislar feodalizmga bo‘lgan davr, ba'zilar feodalizm bilan bog‘laydilar. (14. —S.257). Mustaqil lirik qo‘shiklarning janr sifatidagi paydo bo‘lishi, shubhasiz, tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlariga xosdir. «Chunki lirika inson o‘z shaxsini tanigan, o‘zini shaxs sifatida anglagach, o‘zini olam ichra yana bir olam deb bilgan va tashqi ob'ektiv olamga yangicha qaragan sharoitlarda paydo bo‘ladi» (5. T.2. -B.237).

Ammo bu ta'rif og'zaki lirikaning paydo bo'lishini to'la ta'riflay olmaydi. Sababi yuqorida aytilganidek, xalq qo'shig'ining lirik qahramoni umumlashma tipligi, an'anaviy poetik tafakkur mevasi ekanligidadir. Aytaylik, yor-yorlarda kelinchak haqida juda ko'p kuylashadi. Bu maqto'vlar, tilaklar ayni paytdagi kelinchakka ham, uning bir paytlar kelin bo'lgan buvisiga ham, kelajakda kelin bo'ladigan nevarasiga ham taallukdidir.

Xalq lirikasining kadim tassavurlar, marosimlar bilan bog'liqligi uning juda qadimiyligini ko'rsatadi..

An'naviy dunyoqarashda kishilar o'z urug'i, qabilasidan boshqa kishilarni butunlay begona olam vakilari deb tushunganlar. Yor-yor qo'shiqlarida kuyov tomonning yot dunyo vakillari deb bilinishi ham ana shuning hosilasidir. Bizningcha, xalq lirikasining kurtaklari insonning o'zini va urug'doshlarini bir olam vakillari deb tushungan davrlar, totemistik inonchlar tug'ilgan paytlar bilan bog'liq. Xalq lirikasining o'ziga xosligi uning genezisida ham ko'rinadi. Qo'shiqlarning tarixiy ildizlari haqida so'z ketar ekan, folklor tadqiqotchisi oldida xalqning ko'p a'rluk tarixiy jarayonlar davomida magik-mifologik dunyoqarashidan poetik tafakkurga, qo'shiqlarning maishiy-etnografik hodisadan badiiy-estetik hodisaga aylanishi tadrijini kursatib berish masalasi paydo bo'ladi.

Bu juda jiddiy va ko'plab tadqiqotlar natijasida hal etiladigan vazifadir. «Veselovskiy ishlarida, — deydi I.K.Gorkiy, — noestetik hodisalarning estetik hodisalarga o'tishi masalasi ochilmay qolgan»(44.— S. 18). Poetik tafakkurning paydo bo'lishi, taraqqiyoti masalalari keyinchalik ko'pgina olimlar tomonidan ma'lum darajada hal etildi, ammo nihoyasiga etgani yuq.(48; 62; 63; 124; 136; 171 va h.z.). Biz ko'rib chiqqan adabiyotlarga asosan xalq lirikasining paydo bulishi va rivojini quyidagicha ko'rsatish mumkin: magik-mifologik tafakkur, marosimlar, mifologik-poetik tafakkur - poetik tafakkur. Qayd etib utish lozimki, sof mifologik tafakkur mahsuli bo'lgan asarlarda poetik tafakkur elimentlari bo'lganidek, sof poetik asarlarda mifologik tafakkur izlari sezilib turadi.

Shu boisdan, an'anaviy xalq lirikasining namunalari mifologik-poetik va poetik tafakkur mevalaridir. Tafakurning yuqoridagi bosqichlari o'rtasida juda ko'p asrlar o'tgan. Har bir bosqichda xalq qayta-qayta mushohada qilgan. Shu bilan birgalikda mifologik tafakkur elementlari ham saqlanib qolgan.

Xalq maishiy turmushida hozirgacha mavjud bo'lgan ko'pgina marosimlar, urf-odat, irimlar magik-mifologik tafakkurning transformasiyaga uchragan ko'rinishlari bo'lib, ularxalq lirikasida ham o'z poetik ifodalarini topgan.

«.. har bir etnografik fakt, — deydi P.G. Bogatrev, - biron — bir magik, estetik yoki boshqa vazifaga ega. Bu vazifalar ko'pincha biri ikkinchisiga o'tadi, rol almashadi. Masalan, magik vazifa estetikaga o'tishi mumkin va h.z». (31. - S.387).

Misol uchun ko'pgina jahon xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi hayotida ham mavjud bo'lgan, hozirgacha ma'lum darajada mavjud bo'lib kelayotgan qalin etnografik detalini ko'rib chiqaylik: Qalin olish tarixan urug'ning yaxlitligi, mulkini saqlab qolish, yangi oilaning moddiy poydevorini yaratish maqsadlariga qaratilgani uchun juda yashovchan odat bo'lib keldi. U xalq qo'shig'ida shunday ifodalangan:

Ot bog'ladim xariga,

Xaridan ham nariga.

Otam meni sotdilar,

O'zidan ham qariga.

Qo'shiq ijrochisining noroziligi otaning uni sotgani uchun emas, balki zzidan ham qariga o'zatganidadir. qo'shiqdagi sotish so'zini savdodagi olish-sotish tushunchasi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki qo'shiq tili poetik ko'chimlarga boy bo'lgan o'ziga xos hodisadir. Buning isboti sifatida mana bu qo'shiqqa diqqat qiling:

Qoshingning qorasi yuvsa ketarmi,

Seningdek toza gul bog'da bitarmi?

Seningdek toza gul bog'larda bitsa,

So'rab borsam, bog'bon menga sotarmi?

Xalq qo'shig'i tabiatiga ko'ra qora qosh — go'zallik, toza gul - balog'atga etgan bokira qiz, bog' — oila, bog'bon-oila boshlig'i, ya'ni otaning poetik obrazlaridir. Agar sotib olish ma'nosini savdodagi kabi mol yoki buyum xarid qilish deb tushunsak, yigitning qizga sotilsang, sotib olardim, deyishi o'ta xunuk bo'lardi. Shuning uchun yigitning murojaatini oddiy tilga: «Sen toza gulday bokira, balog'atga etibsan, urf-odatimizdagi qalinni to'lasam, otang rozi bo'larmikan?»— deb ag'darish mumkin.

Qalin odati hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqani uchun u ayrim kishilar talqin qilganidek, xotin-qizlarni molday sotish ramzi emas, urfiy shart hisoblangan. Shuning uchun qo'shiqlarda xotin-qizlar ham bu odatni ma'qullagan:

Tayg'ancoqqa ot solganda toyishadi,

Ustidagi egar-jabduq mayishadi.

Qiz tanlashga elimizga nega kelding,

Qalin uchun qovurg'ang qayishadi.

Xalq lirikasi namunalari urf-odatlar bilan bog'liqligi mana bu qo'shiqda ham ko'rinadi:

Toqqa chiqdim tarasha,

Qoralar zulfim yarashar.

Bizga kelgan sovchilar,

Ot ustidan qarashar.

O'tmishda ham hozirgidek qizlarga sovchi kelishi tabiiy bo'lganidek, ularning otda kelishi ham odat sanalgan. Otsiz sovchi qiz bola uchun ham, yigit tomon uchun

ham nomus hisoblangan. Etnografik detalning badiiy-estetik hodisaga aylanishi ko'pgina xalq maqollari uchun ham xos xususiyatdir. Masalan: «Qizlik uyga qirq ot bog'lanar» maqoli bor. Bu qiz bolaga ko'p sovchi kelishi mumkin degan fikrning badiiy ifodasidir. Misollarimizdagi ot obrazi esa ham xalq odati, ham ot kulti bilan bog'liq.

Ko'rinib turibdiki, xalq maishiy turmushidagi qalin, sovchi, sovchilikga otda borish etnografik fak-tlari xalq lirikasida sotish, kizlik uyga qirq, ya'ni ko'p ot bog'lanishi poetik ko'chimlariga aylanib, magik-utilitar funksiyadan o'sib, badiiy-estetik ahamiyat kasb etgan. Yana bir misol:

Chimildig'ing chip-chinor,

Bo'ying chinor, yor-yor.

Buyingga ko'z temasin,

Olay tumor, yor-yor.

Chimildiq — kelin-kuyovni magik himoya kilish, ularning baxtli, serfarzand bo'lishi uchun yasalgan ritual buyum. Chinor — o'zoq umr, chinorday bo'y — go'zallik ramzi. Tinglovchi qo'shiqning ma'lum takror, ko'chimlar, vazn va qofii to'zilishlaridan ham zavq olishi mumkin. Bu qo'shiqning badiiy-estetik hodisaligidandir. Ammo o'zbek xalqining chimildiq, chinor haqidagi tassavurlari ko'z magiyasiga inonchi, tumor etnografik detalidan bexabar kishi bu qo'shiqni umuman tushunmaydi. Mobodo qo'shiqni o'zga tilga tarjima qilinsa, uning uchun, albatta tarixiy, etnografik izohlar berish shart bo'ladi. Qo'shiqni tarixiy asoslariga ko'ra shunday tahlil kilish mumkin: Go'zal kelinchak bo'libsiz (chinor va chimildiq) go'zalligingga yomon ko'z tegib, baxtsiz bo'lib qolmagin, maxsus kishilardan tumor yasatib, taqib qo'yay.

Xalqning chinor haqidagi tasavvurlari, ko'z magiyasiga inonchi mazkur qo'shiqning tarixiy asosidir.

Xo'sh bu magik-mifologik qarashlar qanday qilib qo'shiqqa badiiy-estetik hodisaga ko'chgan? Avvalo qo'shiq ijrochisi bo'lgan xalq ongida chimildiq chinor, ko'z magiyasi haqidagi inonchlar bo'lganligi uchun. Xalq maishiy turmushidagi etnografik detal va dunyoqarashidagi inonchlarni qaytadan poetik mushohada qilib, an'anaviy tayyor she'riy shaklga solib kuylaganyu. An'anaviy xarakterga ega bo'lganligi uchun xalq lirikasida vazn ko'rinishlari yozma adabiyotdagidek ko'p emas.

Estetik bo'lmagan faktlar, hodisalarning xalq lirikasida badiiy-estetik hodisaga aylanishi til, tarixiy ong taraqqiyoti tufayli qadim inonch-tassavurlarni, maishiy turmush voqealarini qayta mushohada qilish, poetik idrok qilish bilan bog'liq.

Qo'shiqning asosida hissiyot yotganligi uchun uning kurtaklari ibtidoiy davrlar, miflar bilan bog'liqdir. «San'atda voqelikni badiiy o'zlashtirish ham, borliqga diniy munosabat ham inson sezgilari, hissiyoti, kechinmalarisiz bo'lishi mumkin emas», - deydi D.M. Ugrinovich(229.-S.13).

Sa'nat, jumladan, xalq lirikasi to'laligicha arxaik dinlar, mifologik tafakkur ta'sirida paydo bo'lgan degan fikrlarga qo'shilmaganimizdek, ularning xalq og'zaki ijodidagi ulkan ahamiyatini ham inkor etmaymiz.

Xalq lirikasi spesifikasi, poetikasini totemizm, shomonlik, magiya, hosildorlik kultlari, marosim, urf-odatlarni o'rganmay to'la yoritish mumkin emas. Buning uchun har bir qo'shiq, har bir obraz, har bir ramz, har bir tasvir vositasi, so'zni jiddiy o'rganish lozim. Bu izlanish yo'lidagi dastlabki ko'zlashni qo'shiq, lirika, ashula atamalariga munosabat bildirishdan boshlaymiz.

Ashula atamasini V.V.Radlov kuy-melodiya deb izohlagan(175.-S182). Mo'zika folklori mutaxassislari fikricha, ashula qo'shiqning biror cholg'u asbobi bilan ijrosini anglatadi (144). Demak, ashula ham qo'shiq anglatgan ma'no doirasiga kiradi.

Adabiyotshunoslik fanimizga lirika atamasi ham to'la singishib ketgan va uning qator tavsiflari mavjud. Shuningdek, lirika atamasi yunoncha lira deb yuritilgan cholg'u asbobi no-midan olingan bo'lib, kuylanadigan asarlarni bildiradi, deyдилar.(203. -B.251;274. - B. 175). Bu fikrlarga'tiroz bildirib bo'lmaydi. Ammo lirika va qo'shiq atamalarining ildizida mifologik dunyoqarash yotganligini qayd etish lozim. «Ismiga qaraganda, - deb yozadi Dj. Frezer, - semitlap shohi Kinir nomi semitcha lira so'zidan kelib chiqqan. Kinir ismi yunoncha -cinyra - ya'ni, lira so'zi bilan bog'liq bo'lib, u o'z navbatida semitcha kinnor – lira so'zidan kelib chikkan». Qur'oni Karimning o'zbekcha tarjimasidagi "Saba" srası izohiga ko'ra: "Tangri taolo Dovud alayhis-salomga shunday xush ovoz ato etganki, u kishi Zaburni tilovat qilganlarida, osmonda uchib ketayotgan qushlar tik qotar va chor atrofdagi tog'u toshlar bilan birga u zotga jo'r bo'lib, tilovat qilishar ekan". O'xshashligi shundaki, hozirda Respublikamizning ayrim joylar, aniqrog'i Buxoro viloyatida qo'shiq aytishni o'qish ham deyдилar.

Demak, lira asbobi ilk bor odamlar tassavurida Ilohiyot bilan bog'liq bo'lib, lira atamasi miloddan III-IIasrlarga emas, balki undan ham 900-800 yil ilgari semitcha so'zdan kelib chiqqan degan xulosaga kelamiz. Ayni paytda lira chalish nima uchun diniy marosimlarning tarkibiy qismi bo'lgan degan savol tug'iladi. Unga BL.Rabinovichning «Germes lirasi» nomli maqolasidan javob topamiz . Olimning sharhiga ko'ra, Homerning «Germesga» bag'ishlangan tintanali qo'shig'ida Germes lira yasab, uni sigir-lari evaziga Appolonga almashtirgani kuylanadi. Yunon mifologiyasida Appolon - yorug'lik, sa'nat va mo'zika ilohidir. YE.L.Rabinovich YEvropadagi qator xalqlar folklori materiallariga asoslanib, lira mifologik, ya'ni ilohiy narsa, Germes esa jahon daraxtining analogi degan xulosaga keladi. Shomonlik tassavurlariga ko'ra ham shomon dunyo markazi yoki jahon daraxti hamda uning analoglari tog', qir, ustunlarda bo'ladi. Ulardan oliy bilim va ilhom oladi. Ma'lumki, shomo-nizm turkiy xalqlar tarixida ham muhim rol uynagan. Turkiy shomonlarning har uchala: er osti, yuzi, osmon dunyolarida erkin keza olish qobiliyati Germesning marhumlar ruhini u dunyoga ko'zatib borish vazifasiga

uygʻundir. YEL. Rabinovichning Germes — shomon ilohi, u Appolonga bergan lira esa oliy bilim va ilhomdir degan fikri ham Germes bilan turkiy shomonlar homiy ruhlari urtasida umumiylik mavjudligini koʻrsatadi. Ana shu mulohazalarga asosan, biz lira dastlab diniy tassavurlar bilan bogʻliq cholgʻu boʻlgan degan xulosaga kelamiz. Dj. Frezer arfa cholgʻusini ham tilga olgan.(240. — S.316). Qizigʻi shundaki, Oʻzbekiston territoriyasidan topilgan arxeologik yodgorliklar orasida arfa tasviri ham uchraydi. Sa'natshunos M. Rahmonov oʻz monografiyasida ana shunday tasvirlardan birini keltirgan. Unda koʻksiga bosib, arfa chertib turgan ayol tasviri bor. Bu yodgorlik Termiz yaqinidagi Hayratomdan topilgan boʻlib, mutaxassislar uni eraning I-II asrlariga oid dektopishgan (178. —S.85).

Umuman olganda, jahonning turli nuktalarida yashagan, hatto tarixda bir-biridan butunlay bexabar boʻlgan xalqlarning qadimiy tasavvur va eʼtiqodlari, mifologiyasi, ogʻzaki ijodini qiyosiy oʻrgangan olimlar ular oʻrtasida farqlarni emas, aksincha hayratlanarli darajadagi uygʻunlikni koʻradilar.

Bu borada V.M.Jirmunskiyning jahon xalqlari folkloridagi tipologik bir hodisani chuqur yoritib bergan tom maʼnodagi monumental va umumlashtiruvchi "Kuychining iqqidori haqida afsona" maqolasi diqqatga sazovordir. Olim keltirgan ma'lumotga koʻra, 731 yilda yozib tugatilgan "Farishtalarning butxona tarixi" asarida aytilishicha, eng birinchi anglo-saks shoiri Kedmon kuylashni bilmagan va ziyofatlardan birida bundan or qilib, kulbasiga borib uxlab qoladi. Uning tushida bir kishi paydo boʻlib, undan nimadir kuylab berishni soʻraydi. Kedmon kuylay olmasligini aytgan-da, u Kedmonga dunyoning yaratilishi haqida kuylashni buyuradi. Uygʻongach, u barcha qoʻshiqni eslab qolgan boʻladi va bu iqtidorni xudodan deb biladilar(72. —S.397 -407). Folklorshunos olim B.N.Putilovning soʻngi asaridagi koʻzatishlari ham ogʻzaki ijod, jumladan epos kuychilarining cholgʻu asboblariga xos juda koʻp tassavurlar va inonchlar tipologik, ayni paytda etnik hodisa ekanligini tasdiqlaydi.

Oʻzbek xalq dostonchiligi va dostonchilari haqida yirik tadqiqotlar yaratgan H.T.Zarifov va T.Mirzaevlar xalq baxshi-shoirlari tarixan shomon ham

bo'lganliklarini, o'zidagi talant va ilhomni g'ayri-tabiiy tush ko'rish bilan izohlashlarini ko'p ko'zatganlar: Guyo avval hech qanday ijod iqtidori bulmagan odam biror daraxt tagi, g'or yoki qirda uxlab qolib, tushlarida bir mo'ysafid kelib, ularga do'mbira beradi va kuylashni buyuradi. O'yg'ongan odam o'z-o'zidan doston kuylab, baxshi bo'lib ketadi(). Animistik tassavurlarga ko'ra tush kurish inson jonining tanasini vaqgincha tark etishi va tushda ko'rilgan narsalar haqiqat sifatida qabul qilinishi xosdir. Baxshi-shoirlar tushlarida ko'rgan hodisalar shunday tarixiy asosiga ko'ra real deb tushunilgan. Tushda ko'rilgan tog', daraxt, qirlar esa shomon homiy ruhlarining makonidir. Shoir-baxshilikning sababini ruhlar dunyosi bilan bog'lash jahondagi ko'pgina xalqlar, jumladan turkiylar uchun ham xos bo'lgan tipologik hodisadir slomiy hadislarda ham yaxshi tush Ollohdan, yomon tush shaytondan deb talqin qilinadi va payg'ambarga ham Quroni karimning ilk oyatlari tushida nozil bo'lganligi aytiladi.Xalqimizdagi: «Yaxshi tush — rahmon, yomon tush-shayton» maqoli ham ana shunday inonchlar mevasidir.

Turkiy xalqlar an'anaviy dunyoqarashida shomon va baxshi-shoirlar o'z faoliyati bilan tassavurlarida yaratuvchi darajasiga etgan F. Roo'zental yozishicha, arablarda shoir so'zi dastlab sehrigar-jodugar, she'r esa sehr-jodugarlikni anglatgan(182. — S.184).

O'zbek baxshi-shoirlarining do'mbiralari, shomonlarning childirmalari ham an'anaviy dunyoqarashda ilohiyot, ruhlar dunyosi bilan bog'lanadi. Baxshilar talqinicha, do'mbiraning tarixi Germes lirasidan ham qadimiyroq — birinchi odamlar bilan bog'liqdir:

Do'mbiramning torini,

Momo Hovo eshdilar.

Do'mbiramning chanog'in,

Odam Ota teshdilar.

O‘zbek xalq termalarining mavzu jihatidan katta bir turkumini tashkil qiluvchi «Do‘mbiram» turkum termalarida do‘mbiraning yong‘oq, archa, jiyda kabi daraxtardan yasalganligi ko‘p kuylanadi va ular umumxalq lirikasining faol poetik obrazlaridir. Qadimda bu daraxtlar hosildorlik kulklarining muhim ob'ektlari bo‘lgan. Xalq termalarida do‘mbiraning baxshilar tomonidan —doimiy hamroh, ulfat, qizlar sochini siypalov-i oshiq, baxshi oilasini boquvchi deb ta’riflanishi mifologik, epik bedov otlarga qiyoslanishi qadim tas-savurlarning poetik ko‘chimlarga ko‘chishi natijasidir. Shomonlik, baxshilik ilohiy tuhfa sifatida tushuniladi. Ko‘pgina ertaklarda sibizg‘a, nay kabi cholg‘ular chalinganda podsholarning ham beixtiyor o‘yinga tushib ketishlari ham tarixan shomonizm bilan bog‘liq. Shuning uchun baxshilar ilohiy tuhfa hisoblangan do‘mbirasiga yomon ko‘zlar, yovo‘z ruhlardan asrash uchun tumorlar, ko‘zmunchoklar taqadilar va do‘mbira ham qaysar ot kabi begonalarga buysunmaydi:

Mendan boshqa odam chalsa sayramas,

Kulda bulsang egang qayg‘u uylamas...

Qayd etish lozimki, do‘mbira, dutor haqidagi termalarda cholg‘u asboblariga insonlarga xos sifatlarning berilishi tarixiy asosiga ko‘ra, o‘simliklar kulti, shomonlik qarashlarining noestetik hodisalardan estetik hodisalarga evrilishi natijasida poetikada jonlantirish sa'natini yuzaga chiqargan. Lira va do‘mbira ilhom chaqiruvchi vosita, qadimiy tassavurlarda iloh va ruhlar tuhfasidir. Xususan, Gomer talqinida rapsodlar ilhomiga xudolar, ba'zan bosh xudo Zevsning o‘zi homiylik qiladi. Qo‘shiq esa muqaddas va go‘zal.

«Ilhomning ilohiyligiga ishonch butun jahonda bor, - deydi Dj. Frezer, — Odamlar ayrim kishilar vaqgi-vaqti bilan ruhlar yoki ilohalar tomonidan muhtalolikga yo‘liqlishlari mumkin deb hisoblaydilar» Bu fikrni o‘zbek olimining xulosasi ham tasdikdaydi.

«Ilhom deganda, — deydi A.Rustamov, — kishiga bi-ror sirli hodisaning ayon bulishi tushuniladi». Shuningdek, xalqimiz qadimdan iste'dodli xo-nanda, rassom,

shoir — xullas o‘z kasbining mohir us-talariga nisbatan, «tanglayiga xudo bergan», «unga xudo bergan» iborasini qullab kelgan. Reallik bilan mavh-umlik urtasidagi farqni unutib, kuchli ilhom holati-ga kirish liniy marosimlarda tarkibiy element bo‘lgan.

«Tassavur qilingan dunyo yoki ramzlar olami,-deYdi fiziologlar, — o‘z realligi jihatidan haqiqiy dunyo-dan kam emas».Respublikamizda xalq lirik qo‘shiqlarining omma orasida ijro jaraeniga diqqat qilsak, ular odatda vokal ohang yoki doyra jurligida kuylanishiga guvoh bo‘lamiz. Turli tumanlarda childirma, zag‘oma, daf deb yuritiladigan doyra turkiy shomonlarning ko‘pchiligining shomon marosimlaridagi asosiy asboblari bo‘lib, ularga qadimiy ramzlar chizilgan Demak, lira va do‘mbira tarixiy asoslariga ko‘ra ilohiy cholg‘ular deb tushunilgan va kuylash, ijodkorlik salohiyati ruhlar dunyosi bilan bog‘langan. Bu xulosani tarixan qo‘shiq va qo‘shiqchilikla ham tadbiq qilish mumkin. Shomonlik dunyoqarashi, baxshilar poeziyasi, xalq lirikasi rivojida muhim rol uynagan.

Endi qo‘shiq atamasi va qo‘shiqning mifologik talqini haqida: Xalq qo‘shiqlarining etuk bilimdoni, olim M.Alaviya: “..qo‘shiq terminining sof o‘ziga xosligi va ko‘p asrlar muqaddam turkiy tilda paydo bo‘lgan”li-gini, hozirda xalq poeziyasi ma’nosini anglatishi aytib, atama genezisini aniqlashga juda yaqin kelgan . Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida qo‘shiq so‘zining arabcha she’r, qasida, rajaz ma’nolari qayd etiladi. Biroq e’tirof etish kerakki, qo‘shiq turkiy xalqlar folklorida arab bosqinchilariga qadar ham mavjud bo‘lganidan tashqari, bu atamalarning birortasi o‘zbek xalq qo‘shiqlarining tabiatini, mohiyatini to‘liq ifodalay olmaydi. Hozir turkiy xalqlar o‘z qo‘shiqlarini turlicha ataydilar. Masalan, turkmanlar -aydm, turk va ozorlar goshma, qoraqalpoqlar — qo‘shoq, uyg‘urlar — qushoq deb yuritadilar va h.z. Bu atamalarga diqqat qilsak, ular-ning ko‘pchiligi asosida qush o‘zagi turganligini ko‘ramiz. XI asrda ijod etib o‘tgan Yusuf Xos Hojining «Qutadg‘u bilik» asarida turkiycha qo‘shiq, XIV asrda yashagan «Muhabbatnoma» muallifi Xorazmiy ijodida quyidagi misralarni uchratamiz:

Kel ey, oy yuzli dilbar, tut biroz qush,

## Biror qush birla qilg'il bizni madhush.

Xorazmiy masnaviysining ikkinchi misrasidagi qush xalq qo'shig'i namunasi bo'lib, birinchi misrada u may, sharob ma'nosida bo'lishi mumkin.

Hozirgi turk tilida xalq qo'shiqlari turkilar deb ham deb ataladi. Bizningcha, turklar keyinchalik boshqa turkiy xalqlardan farqlash uchun shu atamani qabul qilganlar. Qadimgi turkiycha qo'shiq atamasi esa, ko'pgina turkiy xalqlar uchun xalq lirikasi ma'nosini anglatgan. Shu bilan birga turk folklorshunoslari ham o'z xalqi og'zaki ijodining tarixini hozir Markaziy Osiyo deb yuritilayotgan mamlakatlar bilan bog'laydilar va U'pari yashayotgan hozirgi hududlarga tarix taqozasiga ko'ra, shu erlardan borib qolganlar.

Turkiy tillarning ko'plab xalq qo'shig'ini ifodalovchi atama o'zagida qush yoki unga ma'nodosh bo'lgan so'zlar turadi. Shu jihatdan qo'shiq va qushchi so'zlari bir o'zak dan yasalgan bo'lib, tarixiy ildizlariga ko'ra hosildorlik kultlari bilan bog'lanadi. Hosildorlik kultlari tufayli jahonning ko'pgina mamlakatlarida ko'klam birinchi qo'shni (omochni) qizlar yoki ayolcha kiyingan erlar tortganlar. Bunga sabab qadim zamonlarda odamlar erning hosil berishi bilan ayollarning farzand ko'rishi o'rtasida ajib uyg'unlik ko'rganlar. Ayollarning tug'ishi uchun erlarni aloqasiz deb bilganlar. Bu inonch izlarini V.Ya. Propp rus ertaklaridagi Baba Yaga obrazining tarixiy ildizlari misolida juda yaxshi ko'rsatib bergan .

QUsh, omoch ixtirosi dehqonchilik tarixidagi buyuk burilish edi. Shu sababli qo'shning o'zbek xalqi hayotidagi roli g'oyat ulkan bo'lgan. Qo'shning tarixan hosildorlik kultlari va oila g'oyalari bilan bog'liqligini mana bu xalq qo'shig'i juda ravshan ifodalaydi:

Bedapoyang bo'sh qoldi,

O'rtasida qush qoldi.

Kelmaysanmi, suygan yigit,

Shoyi ko'rpang bo'sh qoldi. Qo'shiqdagi bedapoya ko'rpa bilan, qo'sh qizu yigit bilan poetik juftliklardir. Bundan tashqari lirik qo'shiqlarda beda, bedana, bedapoya tushunchalari ko'pincha intim kayfiyatlarni badiiy ifodalashga xizmat qila-di. Respublikamizning ayrim joylarida kelin-kuyovning qo'shilishlarini ham qo'sh haydashga qiyos qilganlar Qadimda qo'shiqning qo'sh kabi oila va Hosildorlik g'oyalari bilan bog'liqidigiga bir xakas rivoyati ham isbot bo'ladi: Bu rivoyatga ko'ra, bir paytlar qo'shiq bilganlarga uylanish huquqiga ega bo'lganlar.

Akademik B.A. Rbakov rus ertaklaridagi Koey nomi turkiy tillardagi qushchi so'zidan kelib chiqqanligini, uning dastlab hosildorlik poyalari bilan bog'liq bo'lganligini rus ertaklari tahlili misolida juda yaxshi ko'rsatib bergan. Olimning fikricha, Kosheyning o'lmasligi, jonining tuxum yoki tuxumdagi ignada bo'lishi hosildorlik tassavurlari va har yili ko'klamda o'simliklarning qayta jonlanishi bilan bog'liqdir. Biroq olim Koey so'zining etimologik ma'nosi xizmatkor, qul, asir deydi, bunga qo'shilish qiyin. Chunki L. I. Gumilev ma'lumotlariga ko'ra, turkiylar qul deganda begonaga buysunuvchi, birovlar xizmatini bajaruvchilarni tushunganla). Bunda tashqari Koshey haqidagi rus ertaklarida uning joni tuxumda yoki tuxum ichidagi ignada bo'ladi. Etnog-raflar, xususan, L.Ya. Shternberg jahon xalqlari dunyoqarashida tuxumdan yaralish universal motivi ham keng tarqalganini aytadi.. Masalan, hind miflaridan birida dunyoning yaratilishi shunday talqin qilinadi: Dastlab faqat suv bo'lgan. Suvdan olov paydo bo'lgan. Olovning buyuk harorati natijasida suvdan oltin tuxum yaralgan. Bu oltin tuxumdan birinchi inson — Braxma paydo bo'lib, tuxum ikkiga bo'lingan. Bu bo'lak-larning birinchisidan osmon, er va ular o'rtasida havo paydo bo'lgan.(b1). Bundan ma'lum bo'ladiki, Koey jonining tuxumda bo'lishi bejiz emas. Animizmga ishongan ibtidoiy odam o'z jonini biror xilvatga yoki biror narsaga yashirib qo'yib, o'zi o'limdan qo'rqmay bemalol yuravergan. Ertaklardagi Kosheyning o'lmasligi siri ham animistik tassavurlar natijasidir.

Ba'zi rus ertaklarida Koshey ekish va o'rim davrida qahramonga o'z asiri bo'lmish malikani vaktincha olib ketishga ruxsat berar ekan(188. -S.324). Bundan ma'lum

bo'ladiki, Koshey obrazi qushchi, hosildorlik va u orqali farzand kultlari bilan bog'liq. Uning jonining tuxumda bulishi va o'zbeklarda ko'zi yorigan ayolning eng avval tuxum eyish odati keng tarqalganligi ham bu fikrimizni tasdiqlaydi. Yana bir muhim fakt: Tarixchi etnograf K.Shoniyozov o'tmishda qo'shchilarning bahorgi shudgor davrida boylarga yollanib ishlagan kishilar bo'lganligini aytadiki, bu B.A. Rbakovning Koey so'zi hiqidagi qul, xizmatkor degan fikrlarini yollanma ishchi dsb almashtirishni taqozo qiladi .

Qo'sh va qo'shchining hosildorlik kultlarida muhim rol o'ynaganligini folklorshunos B.Sarimsoqovning O'zbeklarda ko'klamda dalaga birinchi qo'sh chiqarish marosimiga jiddiy ahamiyat berganligi haqidagi kuzatish-lari ham quvvatlaydi Bizningcha, qo'shiq so'zi o'zagidagi qush ham tarixan hosildorlik va serpushtlik g'oyalari bilan bog'liq bo'lgan. Ajdodlarimiz qo'shiqni ham qo'sh kabi real mavjudot deb tasavvur qilganlar. Jumladan, Ch.Valixonov yozib olgan rivoyatga ko'ra: Bir zamonlar qo'shiq er uzra uchib, odamlarni kuylashga o'rgatgan. U ayolday injiq va go'zal bo'lgan. Qo'shiq qaysi joyda ko'proq to'xtab, quvonsa, u erda odamlar serfarzand va farovon yashashgan

Kizig'i shundaki, turkiy xalqlar mifologiyasida ayollar va go'daklar homiysi deb tassavur qilingan iloha Umay ham afsonalardan birida mifik qush sifatida talqin qilinadi va osmonda tuxum quyadi. A.Bernshtam esa Umayni ayol jinsidagi fantastik mavjudot, oila o'chog'i va avlodlar davomiyligi homiysi bo'lgan, deb talqin qiladi. M.O.Kosven fikricha, dehqonchilikni birinchi marta ayollar kashf etishgan. Tarixda jinsiy mehnat taqsimotiga ko'ra, Markaziy Osiyoda ham er — ovchi, ayol — yig'uvchi, keyincha ziroatchi va kulol bo'lgan.

Etnografik faktlar hosildorlik kultlarida ayollar, ayol ilohalar yetakchi rol uynaganligini kursatadi. MAaviya: "Marosim qo'shiqlarining asosiy ijodchilari va ijrochilari xotin-qizlardir"— deganida to'la haqlidir.

Bu faktlar barchasi tarixan qo'shiq va qo'sh, hosildorlik va xotin-qizlar ajdodlarimiz tassavurlarida uyg'un tushunilganligini ko'rsatadi. Ma'lumki, qush

soʻzining juftlik maʼnosi ham bor. Xalqimizning: "Eru xotin - qoʻsh hukiz" maqoli juftlikni, oilani ham anglatadi. "Qadimgi turkiy lugʻat"-da qoʻsh soʻzining juft, toʻzmoq maʼnolarini uchratamiz. Shuningdek, ikki soʻzi ham koʻpincha qoʻsh soʻzining sinonimi boʻlib, turkiy til tarixida egizaklik(ikkiz)ni ham anglatgan. Anʼanaviy dunyoqarashda qoʻsh — juftlik, Olohdan soʻng Oloh yaratgan muqaddas hodisadir. Oʻzbek qoʻshiqlarida qush soʻzining sinonimlari boʻlgan juft, ikki, joʻra, egiz soʻzlari faqat miqdoriy maʼno anglatmay, koʻpincha magik ahamiyat kasb etadi va albatta biror jihati bilan sevgi, oila, farzand gʻoyalari bilan bogʻlanadi:

Toʻrtimda koʻrdim toʻda gul,

Qafasda sayraydi bulbul,

Ikki yuzing bogʻdagi gul,

Yor muncha zor etding meni.

Qoʻshiqda qator: turt -ikki juftlik, toʻda — bir necha juftlik, gul bilan bulbul, ikki yuz va gul, zor etgan yor bilan lirik qahramon — juftliklar, ya'ni poetik parallelizmlar mavjud va ularning barchasi sevgi ke-chinmasini ifodalashga xizmat qiladi. Qoʻshiqlarimizda chaqaloqni ulgʻaytirayotgan ona koʻksining ham qoʻsh buloqqa oʻxshatilishi tarixan hosildorlik, egizaklar, juftlik kultlari bilan bogʻliq:

Uyingning oldi qush terak,

Kiyganingiz adras ipak.

Tushdan oqqan qoʻsha bulok,

Ena darkordir yigitga.

Misolimizdagi qoʻsh terak boʻlajak farzand istagining yashirin poetik ifodasi boʻlsa, keyingi misralar bu gʻoyani ravshan yuzaga chiqargan. Umuman olganda, taraqqiyotning maʼlum bir bosqichida ajdodlarimiz jonli, jonsiz hamma narsa juftlikdan iborat va hayot shu tufayli davom etadi, deb bilganlar. Masalan, osmon — ota, er-ona, mayin shamol — ayol, izgʻirin — er jinsidan deb tushunilgan.

Xalq lirikasi namunalarida jura so‘zi ham ko‘pincha juftlik ma’nosini tashiydi. Xulosa kilib aytganda, Xalq qo‘shiklari janriy xususiyatlari, goyaviy-badiiy xususiyatlari bilan aloxida ajralib turadi

## **II BOB. Xalq qo'shiqlarini boshlang'ich sinf oquvchilariga o'rgatish usullari**

### **2.1. Boshlangich sinflarda xalq qo'shiqlarini o'rgatishning amaliy ahamiyati.**

Biz yukorida Xalq qo'shiqlarining Xalq ma'niyatini shakllantirishdagi urni , ularning tarixiy asoslari, goyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar xilma-xilligi, she'riy tuzilishlari xakida mf'lumot berishga xarakat kildik. Umuman olganda, Xalq qo'shiqlari insoniyat xayotida muxim xodisa. Shu bois ularni umumta'lim maktablarida,jumladan, boshlangich sinf ukuvchilariga urgatish jarayonida ularning fikrlash kobiliyati, milliy kadriyatlarga bulgan kizikishlari, uzida vatanga bulgan muxabbat, mexnatsevarlik, dustlikni ulug'lash kabi tushunchalarining kengayish xususiyatlarini Xalq qo'shiqlarini taxlil kildirish jarayonida kurib chikishga xarakat kildik. Inson borki, hayot bor, jamiyat bor, jamiyat borki inson kamol topib yashab, ulg'ayib kelmoqda. Inson eng muqaddas kuchdir. Yurtboshimizning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarini o'qigan har bir kishi ongida shunday fikrni singdirishi kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini anglashlari lozim. Albatta, bilimli, ongli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq taroziga solib ko'radi. Darhaqiqat, mamlakatimiz, xalqimiz kelajagi yosh avlodimizga bog'liq, ularni barkamol, intellektual salohiyatli yoshlar qilib tarbiyalash esa ayniqsa ta'lim tizimida faoliyat olib borayotganlarga bog'liq. Bugungi kunda mamlakatimizda milliy istiqlol ruhi bilan yo'g'rilgan ana shunday tarbiya tizimi yaratildi. Uni doimiy takomillashtirib borish va davr talablariga hozirjavobligini ta'minlash esa har birimiz va hammamizning asosiy vazifamiz hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan,uning mustaqilliga va erkinligiga, an'ana va urf-odatlarini bo'ladi. Ko'hna va boy tarixga, noyob madaniyat va yuksak ma'rifatga ega o'zbek xalqining an'ana va sharqona urf-odatlarini qadimiydir.O'zbek xalqining jahon xalqlari o'rgansa arzigulik an'ana va milliy qadriyatlarini bor. Milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirini mujassam bo'lgan mehr-oqibat,insonni ulug'lash,tinch va osoyishta hayot,do'stlik va totuvlikni

qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qariyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning og'zaki dialogik nutqini o'stirishga, ularning nutq madaniyatini va uslubini shaqllantirish va rivojlantirishga boshlang'ich sinfdan boshlab alohida e'tibor beriladi.

Bu darslarda o'quvchilarning ajdodlarimizning milliy qadriyatlarini, xalkimiz tilining jozibasini o'zida yorqin ifoda etuvchi folklor namunalariga ko'proq tayaniladi. Darslarda xalqimiz og'zaki ijodiga mansub ertak naql, afsona, rivoyat, aytishuv, ulan, yor-yor, askiya, maqol, topishmoq, olqish, qo'shiq singari qator badiiy janrlardan o'rinli foydalanish og'zaki dialogik nutqning o'sishiga qatta yordam beradi. Shuningdek ular o'quvchilarning axloqiy qarashlarini shakllantirishga va boyitishga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ularning og'zaki monologik va dialogik nutqini o'stirish juda muhim vazifalardan biri sanaladi.

O'quvchilarning ogzaki dialogik nutqini o'stirishda quyidagilarga amal qilish yaxshi natija beradi:

1. Mashg'ulotlarni an'anaviy qolipda emas, yangi pedagogik texnologiyalar asosida, fantaziya va tajriba, bilim va mahoratdan kelib chiqib, tashkil etishga, noan'anaviy darsni biror marosim (ko'pincha juda ko'tarinkilik bilan o'tadigan udumlarga boy o'zbek to'ylari) ssenariysi asosida o'tkazish mumkin.

2. O'quvchilarning og'zaki dialogik nutqini o'stirish uchun o'zbek folkloridagi aytishuv asosida yoki tarafma-taraf bo'lib ijro qilinadigan janrlarining imkoniyatlaridan foydalanib, ularni o'rgatishga harakat qilinadi.

Bunda aytishuv, ulan, yor-yor, lapar, askiyalarning soha bilan bogliq jihatlari borini tanlab yodlatib, dialogik shaklda, ya'ni ikkita-ikita bo'lib ijro qilib berishlarini talab qilinadi.

Masalan, «**Boshginam og'riydi**» xalq laparida ona va qizning «bosh og'rig'i», «bo'yin og'rig'i», «ko'z og'rig'i», «quloq og'rig'i», «oyoq og'rig'i va hokazo haqidagi yumoristik dialogik aytishuvi ifoda etilgan:

-Onajon, onajon,

Boshginam og‘riydi-ya,  
- Boshginangdan onang aylansin,  
Nimalarga og‘riydi-ya?  
-Bozorlarda bo‘lar ekan,  
Zargarlarda turar ekan,  
Uning oti zar tillaqosh,  
O‘shanga og‘riydi-ya.  
- O‘shanga ogrisa-ya alamo-alamo!

Agar o‘quvchilar bu laparni o‘rgansalar, ularda lapar ohangidan zavqlanish hissi paydo bo‘lishi barobarida o‘zlariga notanish so‘zlarni tez o‘zlashtirish imkoniyati ham yaratiladi.

Shuningdek quyidagi lapar matni orqali ham o‘quvchilar o‘zbek ayollari ko‘ziga surtadigan «surma» nomli bo‘yoqning shifobaxshligidan ogoh bo‘ladilar. Chunqi bu bo‘yoq; yo mol suyagi iligi yoqi bodom yog‘ini quydirib olinadi va u ko‘z nurini ravshanlashtirishga xizmat qiladi.

- Onajon, onajon,  
Ko‘zginam ozriydi-ya.  
Ko‘zginangdzn onang aylansin,  
Nimalarga og‘riydi-ya?  
-Bozorlarda bular ekan,  
Attorlarda turar ekan,  
Do‘konda sotilar ekan,  
Uning oti qora surmacha,  
O‘shanga og‘riydi-ya!  
O‘shanga og‘risa-ya alamo-alamo!

Tanlangan materialga o‘quvchilarning qiziqishini orttirish uchun folklor asarlarga xos rangli rasmlar va videotasmalardan namunalar namoyish etiladi.

Bundan tashqari, matn va topshiriqdar yozilgan quyidagi kartochkalar asosida jonli suhbatlar uyushtirish ham o‘quvchilarning o‘zbek tilini mukammal o‘rganishlariga imkoniyat yaratadi:

### **1-kartochka:**

-Qamar,qamar,qamchini

Qovurg‘aning yanchini

Oq terakmi,ko‘k terak?

Bizdan sizga kim kerak?

Kichkina Salim kerak.

Biz boyagi hovlida

Bo‘lib tarafma-taraf.

Navbat bilan aytishdik,

Taraf-tarafga qarab.

Oq terakmi,ko‘k terak?

Bizdan sizga kim kerak?

-Bizga kerak maktabda

Eng a‘lochi Alisher

Oq terakmi,ko‘k terak?

Bizga Alisher kerak!

**Topshiriq:** Ushbu o‘yin-qo‘shiqdan tushunganingizni o‘z so‘zlaringiz bilan aytib bering. Notanish so‘zlarning tagiga chizing. Izohini lug‘atdan toping.

### **2-kartochka:**

Bir,ikki,o‘n olti...

O‘n olti deb kim aytdi?

O‘n olti deb men aytdim

Ishonmasang,sanab boq.

Birov,

Ikkov,

Uchov,

Qochov!

Ushbu o‘yin -qo‘shiqdan tushunganingizni o‘z so‘zlaringiz bilan aytib bering. Notanish so‘zlarning tagiga chizing.Izohini lug‘atdan toping.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xalqning donoligi va ko'p asrlik turmush tajribalari asosida ravon til va o'ynoqi vaznda yaratilgan bunday folklor namunalari o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanib qoladi. Qolaversa, ular tez va oson yod olinadi, Shuning uchun og'zaki shaklda yaratilib, og'izdan-og'izga o'tib qelayotgan folklor asarlari o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda qo'lay vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, folklor asarlar qatiga joylangan purxiqmat qarashlar, umuminsoniy-axloqiy g'oyalar, vatanparvarlik chin do'stlik va sadoqat, vafodorlik xalollik mardlik singari oliy tushunchalar talabalarning dunyoqarashini boyitib, ularni insoniylik sari da'vat etadi.

Tabiiyki, o'quvchilar o'zbek folklori namunasini yodlash va o'rganish jarayonida matnda uchraydigan so'zlarning hammasini ham tushunavermaydi. Chunki folklor asarlarning tili ma'lum darajada murakkab bo'lib, ularda shevaga xos so'zlar, arxaizmlar, istorizmlar ko'p uchraydi. Shuning uchun o'quvchilarga o'zbek tilidan saboq berishda ularning og'zaki dialogik nutqini o'stirish uchun lug'at ustida ishlashga ham alohida e'tibor beriladi.

O'zni kelganda shuni ham ta'kidlash kerakki, dunyo folklorining, yanada aniqrog'i, umumturkiy folklorning tarkibiy qismi sifatida tan olingan o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining juda qup namunalari bir qancha chet tillar qatori rus tiliga ham tarjima qilingan. Xullas, xalq ruhiyatini o'zida badiiy aks ettirgan folklor namunalari chuqur g'oyaviyligi va badiiyligi bilan e'tiborga tushgan. Ularda ajdodlarning erk ozodlik tinchlik farovon turmush uchun olib borgan kurashlari, o'ziga xos an'analari milliy mentalitetni ifoda yetuvchi muhim belgi sifatida ko'zga tashlanib turadi. Shu sababli o'zbekona urf-odatlarimizni chuqurroq anglatish yo'lida folklor namunalarini o'rgatish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

## **2.2 Xalq qo'shiqlari asosida boshlangich sinf o'quvchilarining nutqiy malakasini o'stirish usullari**

Xalq qo'shiqlari yukorida ta'kidlanganidek, fakatgina umuminsoniy goyalarni ta'rgib etish namunasi emas, balki nutk ustirish manbai xamdir. Biz qo'shiqlardagi ana shunday xususiyatlarni bolalar qo'shiqlari misolida kurib chiksak. Xalq badiiy ijodiyotida bolalar qo'shiqlari alohida o'rin egallaydi. Olamni estetik idrok qilish, kayfiyatni ko'tarish, beg'ubor qalbda ezgulikni uyg'otish, ma'nan va ruhan tetik bo'lish bolalik duhyosidagi ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Bejizga buyuklar bolani ona qornidaligidanoq tarbiyalab borish kerak, - deb ta'kidlamaganlar. Ona eshitgan qo'shiq, tinglagan kuyi og'ushida qanchalik kayfiyati ko'tarilib, madaniy dam olsa, tug'ilajak farzand ruhan tetik, ma'nan sog'lom, qobiliyatli, zukko, mehr-oqibatli bo'lishi tabiiy. Bu jarayon go'daklik va bolalik davrida yanada mukammallashadi, ulg'aygan sari mustahkamlanadi.

Bolalar ahglaydigan milliy urf-odatlar, tabiat mo'jizalari, turmush jarayonidagi harakat-holat, ota-ona va boshqalarga bo'lgan munosabatlarni junbo'shga keltiradigan ichki kechinmalar, his-tuyg'ularning kattalar tomonidan bolalar idroki darajasida aytilgan, kuylangan, hirgoyi qilingan qo'shiqlar bolalar qo'shiqlaridir. Ular o'zining obrazlilik, ritmi, kuyi bilan boshqa lirik qo'shiqlardan ajralib turadi.

Bolalar qo'shiqlari dastlab 1932- yilda nashr qilingan "Ashulalar to'plami"da 2 ta "Bozor boraymi qizim?", "Boshginam og'riydi" kabi hazil-mutoyiba qo'shig'I chop qilingan. 1934- yilgi to'plamda esa "Qaychi-qaychi" termasi va "Laylak keldi" qo'shiqlari bosilgan. 1935-yilgi "Ashulalar to'plami"da ham bolalar repertuariga maxsus bo'lim ajratilib, 9 ta bolalar qo'shiqlari nashr etildi. 1937-yilda esa o'zbek bolalar qo'shiqlari alohida kitob holida "Bolalar qo'shiqlari" nomi bilan chop etildi. Unda 18 ta bolalar qo'shiqlari e'lon qilingan. Bolalar qo'shiqlarini mavzu qamroviga ko'ra quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

1. Mavsum-marosim qo'shiqlar.

## 2. Mehnat qo‘shiqlari.

Mavsum-marosim qo‘shiqlar yil fasllari va milliy an‘analarimiz bilan bog‘liq bo‘lgan, faqat bolalar tomonidan ijro etiladigan qo‘shiqlardir. Kattalar bolalarninig tabiatga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, muhabbatini oshirish, har bir faslning o‘z ziynati bailan tanishtirishda ham faol bo‘lganlar. Ular tabiat mo‘jizalarini va milliy urflarimizni qo‘shiqlar tarzida bolalarga o‘rgatganlar. Yil fasllari bilan bo‘g‘liq bahorda kuylanadigan qo‘shiqlar “Boychechak”, “ Oftob chiqdi olamga”, “Chittigul”, “Qaldirg‘och” kabilar shular jumlasidandir. “Boychechak” –bahor darakchisidir. Bahor kelishi bilan bolalar ko‘chalarda to‘da-to‘da bo‘lib, turli o‘yinlar o‘ynaydilar, varrak uchiradilar, qizlar tolbergakdan qasaba yasab boshlariga taqadilar, qo‘shiqlar aytadilar. Ularning birinchi bahor qo‘shig‘i “Boychechak”dir. “Boychechak”ning kattalar va bolalar tilidan yozib olingan yigirmaga yaqin varianti mavjud bo‘lib, hajm jihatidan hammasi deyarli bir xil, ya’ni 8-10 misradan iborat. “Boychechak”ning mukammal deb hisoblangan quyidagi varianti xalq o‘rtasida va bolalar ijodida keng tarqalgan.

Boychechagim boylandi,

Qozon to‘la ayroni,

Ayroningdan bermasang

Qozonlaring vayroni.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,

Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechakni tutdilar,

Tut yog‘ochga osdilar.

Qilich bilan chopdilar,

Baxmal bilan yoptilar.

Bolalar tushunchasida boychechak yoshlik, navqironlik, jo'shqinlik ramzi. U nozik bo'lsa-da, ildizi baquvvat. Aqli raso, zukko, navqiron yoshlar bir maqsad sari yo'lga tushdimi, uni hech qanday kuch fikridan qaytarolmaydi. Bu davrda ular o'ta g'ayratli, jo'shqin, serharakat bo'ladilar. Boychechak ham qahraton sovuqning zarralari uzoqlashmay, yer isimay turib, toshloq, qattiq yermi yoki yumshoq joymi tatalanib bo'yin cho'zib chiqadi. U bosilsa-da, yanchilsa-da yana qaddini rostlab o'sib kelaveradi. U ramziy ma'noda isyonkor ham. U hurlik, erkinlik tarafdori.

“Boychechak” qo'shig'i bolalarning sevimli qo'shiqlaridan biri bo'lib, u turli joylarda har xil variantlarda uchraydi. Ulardagi ayrim so'zlar, jumlar va shakli ham bir-biridan farq qiladi. Bu turlichalik davrning o'zgarishi bilan ramziylik kasb etsa, mahalliy kolorit nuqtai nazarida dialektik xoslikni ifodalaydi. Turli regionlarda aytilgan variantlar 4 yoki 6 misradan iborat. Ularning mazmuni ham bir-biridan farq qiladi. Masalan;

Boychechagim bolasi,

Qulog'ida donasi.

Donasini olay desam,

Yugurib chiqdi onasi.

Bu variantda boychechak erka, nozik, tanti bolaga o'xshatiladi. Bolasining o'jarligini sezdirmaslik uchun onasi unga qalqon. U zarar ko'rmay o'sib-ulg'ayishi kerak. Yana bir variantda boychechakning nozik tanasi arqonga o'xshatiladi. Ya'ni boychechak tanalari arqondek tegirmonni aylantirishga qurbi yetadi.

Qattiq yerdan

Qatalib chiqqan boychechak,

Yumshoq yerdan

Yugurib chiqqan boychechak,

Boychechagim boylandi,

Tegirmonlar aylandi.

“Boychechak” qo‘shig‘ining keyingi vaqtlarda sayqallashtirilgan, peysaj elementlari ifodalangan variantlari yuzaga keldi:

Bolalar, bolalar, boychechak,

Boychechakni teraylik.

Qarang, qanday chiroylik,

Boychechagim ochildi,

Qirga tilla sochildi.

O‘simliklar, gullar dunyosi bilan bog‘liq bolalarning yana bir sevimli qo‘shiqlaridan biri “Chittigul”dir. Bu gul ham bahorni eslatgani uchun mavsum qo‘shiqlar turkumiga kiradi. Qizlar ijrosida aytiladigan bu qo‘shiq mayin harakatlar orqali chiroyli ohangdorlik kasb etadi. To‘rt, olti, sakkiz juftlikdan iborat qizlar kaftlarini bir-biriga urib, qarsak chalib qo‘shiqni maqom bilan turgan joylarida ijro etishadi. Ohangni o‘zgarishi, ovoz tempini oshishi ijrochini serharakat bo‘lishga undaydi. Qo‘shiqni bir qiz ijro etadi boshqalari naqaratiga jo‘r bo‘lishadi:

Chitti gul-o, chittigul,

Gul yaxshi, gul yaxshi,

Hay-yu chittigul,

Gulning bahosi yaxshi.

Chitti gulga gul bosay,

O‘rtadan chiqqan qizning

Bir yonini yonbosay,

Haydar kokili yaxshi.

Hay-yu chittigul,

Hay-yu chittigul,

Hay-yu chittigul.

Hay-yu chittigul,

Hay-yu chittigul.	Oq sholi-yu ko‘k sholi,
Hay-yu chittigul.	Oq sholini oqlaylik,
Qo‘ling qo‘lvog‘da bo‘lsin,	Ko‘k sholini ko‘klaylik.
Beling belbog‘da bo‘lsin.	Hay-yu chittigul,
Hay-yu chittigul,	Hay-yu chittigul.
Hay-yu chittigul.	Ariq bo‘yi tirq‘anchiq,
Dukur-dukur ot keldi,	Tirq‘ana ketmang, jon kelin.
Chiqib qarang kim keldi.	Qaynonangiz urishqoq,
Aravada un keldi,	Urisha ketmang, jon kelin.
Childirmada gul keldi,	Hay-yu chittigul
Hay-yu chittigul,	Hay-yu chittigul.

E’tibor qilib qarasak, qo‘shiq matnining mazmuni ham bir chiziq atrofida emas, tarqoq: goh chittigul haqida, goh qiz bolaning kundalik hamrohi qo‘g‘irchog‘ining beshigi tilga olinsa, goh ot-aravaning xabarchiligi-yu, goh qo‘shni kelin va qaynona murosasi tilga olinadi. Qo‘shiqda kundalik turmushdagi voqeliklar badiiy ifodalangan. “Chittigul” qo‘shig‘i o‘yinqaroqligi bilan ajralib turadi. U mukammal ishlangan, go‘zal qo‘shiq.

Bahor elchisi nomini olgan qush qaldirg‘och insonning do‘sti sifatida bolalarga tanishtiriladi. Qaldirg‘ochning samoda sho‘x o‘yini, quvnoq va yoqimli sasi bolalar diqqatini o‘ziga rom qiladi. Ayniqsa, qaldirg‘ochning xuddi odamlar kabi loydan “qurg‘on” yasashi, chug‘urchuqlarini tumshug‘i bilan oziqlantirishi, ularni uchishga harakatlantirishi, insonlar kabi mehnatkashligi bolalar diqqatini tortadi, shu jajjigina qushchaning serharakati murg‘ak qalblarni hayotga bo‘lgan intilishini, Vataniga muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otadi. Bolalar qaldirg‘ochni erkalab, ba’zan do‘q-po‘pisa qilib, unga murojaat qiladilar.

Qaldirg‘och, g‘och, g‘och,

Eshigingni och, och!

Eshigingni ochmasang,

Tuynugingdan tushaman,

So‘k oshingni ichaman,

So‘ngra qochib ketaman.

Qaldirg‘och, g‘och, g‘och,

Chiyillamay bola och.

Mening sochim jingalak,

Pista bilan bodom soch.

Bolalarning bahor mavsumida aytiladigan qo‘shiqlaridan yana biri “Oftob chiqdi olamga” turkum she‘ridir. Qo‘shiq oftobning chiqishi, kunlarning isishi, pishiqchilik, to‘kin-sochinlikdan darak beradi. Qo‘shiq orqali bolalar o‘z ichki kechinmalarini, araz-ginalarini ham ifodalaydilar. Qo‘shiq quvnoq ohangda, ko‘tarinki kayfiyatda aytiladi:

Oftob chiqdi olamga,

Yugurib bordim xolamga.

-Xola, xola, kulcha ber!

Xolam dedi:-O‘tin ter!

O‘tin terdim bir quchoq,

Kulcha yopdi bir o‘choq.

O'g'liga berdi yog'liq kulsha,

Menga berdi kuyuk kulcha.

Qo'shiqning mazmuni matnidan ma'lum. By o'rinda bola qornidan ham ko'ra qadriga xafa. U mehnat qilib, kuyuk kulchaga ega bo'ldi. Bu nohaqlikdan juda ranjiganliini hazil she'r orqali badiiy ifodalaydi.

Bolalarning ajoyib mavsumiy qo'shiqlaridan biri "Laylak keldi, yoz bo'ldi" turkumidir. Laylak haqidagi qo'shiqlar yigirmanchi yillarda yozib olib, e'lon qilingan bo'lsa-da, eng mukammal varianti professor Hodi Zrifov tomonidan nashrga tayyorlangan "O'zbek folklorida" keltiriladi:

Laylak keldi, yoz bo'ldi,	Men nog'orachi edim.
Qanoti qog'oz bo'ldi.	Nog'oram bir kun buzildi,
Laylakboraditoqqa,	Tanoblari uzildi.
Qor buvaning dastidan	Qanotlarim suzildi.
Quloqlarida halqa,	Laylak keldi, ilon qoch.
Halqasi tushib qoldi.	Bola-chaqang olib qoch
O'tirdi yig'lamoqqa.	Yangi to'ning kiyib qoch,
Men Bobo hoji edim	Eski to'ning tashlab qoch!
Qizlarga boshchi edim	Eski to'ning tashlab qoch!
Qizlarga boshchi edim,	
Qizlar o'yin tushganda	

Bu turkum qo'shiq yoz faslida aytiladi. Bolalarga laylak yoz elchisi sifatida tanishtirilgan. Laylak muqaddas qush bo'lib, u ertak, dostonlarda kishilarning, asar qahramonlarining eng yaqin do'sti, haloskori, homiysi, vositachi obrazida namoyon bo'ladi. Qo'shiqning bolalarga xos yana bir tomoni shundaki laylak insonning dushmani ilondan qo'rqmaydi. U ilon yeydi. Laylak kelish vaqtida ilon tullab,

po‘st tashlaydi va iniga kirib ketadi. Katta-yu kichik ilondan qo‘rqadi. Qir-adirda, yaylovda bolalar erkin o‘ynashni hohlaydilar. Yoz yaqinlashgan sari Lasylakni kelishini orziqib kutadilar. Bu qo‘shiq fasl ko‘rinishining ildizi hamdir.

Bolalar qo‘shiqlariga xos jo‘shqinlik, yengil yumor fasl qo‘shiqlarida ko‘plab uchraydi. Kuz, qish fasllari bilan bog‘liq qo‘shiqlar mazmunan va shaklan pishiq, tasvirli ifodalangan. Kuz faslida tinimsiz yomg‘ir yog‘ishi, poliz ekinlarining g‘arq pishib yetilishi yoki pishib o‘tganligi qo‘shiq mazmunini yoritadi. “Yomg‘ir yog‘loq” qo‘shig‘i yengil yumor asosiga qurilgan. Unda yalqov, dangasa bolalar kulgi qilinadi. Bolalar nutqida ko‘p aytiladigan mashhur qo‘shiqqa e‘tibor beraylik:

Yomg‘ir yog‘aloq,	Kesha-yu kunduz
Echki sog‘aloq.	Og‘zi tinmaydi.
Boyning og‘lini	Qornini qashlab
Qorni dumaloq.	Yulduz sanaydi.

Bu qo‘shiq shoirlar ijod laboratoriyasida qayta ishlanib, yangicha variantda ommalashib ketdi. Bolalar shoiri Quadrat Hikmat yomg‘irning foydali tomonlarini tasvirlaydi. Xalq ijodiga moslashtirib oladi. Ya’ni:

Yomg‘ir yog‘aloq,	Tarnovdan oshib,
Yam-yashil o‘tloq.	Tushadi shoshib.
Endi ekinlar,	So‘ng jilg‘alardan
Chiqarar quloq.	Oqadi toshib.

Fasllar ichida o‘z tarovati bilan kumush epitetini olgan qish ham bolalar diqqatini jalb qilgan. Izg‘irin shamoli-yu qahraton sovug‘iga qaramay oppoq qor ustida zavq-shavqqa to‘lib, shana uchgan bolalar qishni ham orziqib kutadilar. Qish faslida yilning almashishi, Qorboboning sovg‘a-salomlarini tortishib olishlari,

Qorqizni yaxshi ko‘rib qolishlari bolalr qo‘shiqlarini yaratilishiga sabab bo‘lgan, desak adashmaymiz.

O‘zbek bolalari orasida 30-yillarda archa bayramini nishonlash, qorboboni kutib olish odat bo‘la boshlaydi. Bu taraddud asta-sekinlik bilan kengayib, an’anaga aylanib qoldi. Har yangi yilda sovg‘aga to‘lib keladigan qorboboni kutmagan, archani tanimagan bola bo‘lmasa kerak. Ko‘ngillarini xushnud qilish, qorbobodan yaxshiroq sovg‘a olish uchun ularning sha’niga she’r, qo‘shiqlar to‘qiganlar.

Qorbobo keldi,	Chollar yugurar
Yugurib yelib,	Qoqilib, suqilib,
Oq ko‘rpachasini	Kampirlar baqirar
Olamga yozib.	- Nega chopasan?
Bolalar yugurib,	- Boboni ko‘rgani.
“Qorbobo” qilib,	

She’rning ohangi , ritmi qo‘shiqning yengil va tez aytilishiga moslangan. Qo‘shiqlardan parcha keltiramiz:

Qor yog‘di gupillatib,  
Qorbobo taqillatib.  
Kirib keldi bog‘chalarga  
Soqolini selkillatib.

Ayniqsa, bolalar bog‘chalarida archa bayramini o‘tkazish, Qorboboni orziqib qarshi olish, qanday sovg‘alar ulashishini sir saqlash juda qiziqarli nishonlangan. Bolalar Qorboboning uzoq o‘lkalardan sovg‘alar bilan kelishiga rostdan ishonib, intizorlik bilan kutganlar. Qorboboning gupillab yog‘ib turgan qorda izg‘irin shamol bilan vahimali kelishi bolalarning qish haqidagi tasavvurini oshirgan.

Har bir faslning o'ziga xos xislati, ziynati bolalarga qo'shiqlar orqali tushuntirilgan. Bolalar har bir faslning boshlanishida o'ziga mos qo'shiqlarni ijro etganlar.

Bolar tomonidan ijro etiladigan marosim qo'shig'i "Yo Ramazon"dir. Bu qo'shiq faqat ramazon oyining uchinchi kuni o'g'il bolalar tomonidan uch kun aytiladi. Muqaddas ramazon oyida uch kun ro'za tutilgach, bolalar to'da-to'da bo'lib, ro'zaning boshlanganidan xabar beradilar. Odamlarni bir oy ro'zada himmatli, saxovatli bo'lishga, xayr-ehson qilishga chaqiradilar. Bu qo'shiq milliy an'analarimizni o'zida saqlaganligi bilan ahamiyatlidir. Unda xalqona aks etgan.

Bu uyga baraka, baraka...

Ro'zani uch kun tutib keldik sizga

Ro'zani zakotini bering bizga

Oq uyning tepasida oy ko'rinar,

Bu uyning egalari boy ko'rinar.

Xo'ja Xizir nazar qilsin eshigingizga

Xudoyim o'g'il bersin beshigingizga.

Oq tanga, ko'k tanga,

chiqara qoling, jon yanga.

Oq amaki, to'q amaki,

Chiqa qoling boy amaki.

Qo'lingiz ochiq bo'lsin ehsonga,

Ko'nglingiz to'liq bo'lsin iymonga

Oq tanga, ko'k tanga,

chiqara qoling, jon yanga.

Oq amaki, to‘q amaki,

Chiqa qoling boy amaki.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan bolalarga meros qoladigan qo‘shiqlardan biri – bu mehnat bilan bog‘liq mavzulardir. Bolalar taqlidchi bo‘ladi. Xususan, bobo-buvilari, ota-onalari, aka-opalari bajaradigan ishlarni kuzatib, ularning xatti-harakatlarini o‘z o‘yinlari, qo‘shiqlarida takrorlaydilar. Ularning qo‘shiqlarini o‘zlariga moslashtirib, o‘zlashtiradilar. Bolalar, xususan, 7 yoshdan boshlab mehnat jarayoniga kirishadilar. Bajariladigan ishlarni anglay boshlaydilar. Bolalar kattalar bilan birgalikda podaga chiqqanda, ekin yerlarni chumchuq, olaqarg‘a va shunga o‘xshash qushlardan qo‘riqlaydigan paytda o‘z qo‘shiqlarini aytadi. Mehnat bolani hayotni ichiga olib kiradi, turmush, oila, ro‘zg‘or degan tushunchalarni mehnat orqali anglay boshlaydilar. Kattalar o‘zlari bajaradigan ishga bolalarni jalb qilish yo‘li bilan bu jarayonni amalga oshiradilar. Bolalar kundalik turmushdagi turli mehnat qurollari, vositalari, shakllari bilan tanishib boradilar. Bolalar ko‘pincha to‘da bo‘lib, poda boqqani chiqib ketishadi. Podadan qaytayotganda qo‘shiqlar aytib, o‘z ishlaridan mamnun bo‘lib qaytadilar:

Podalar kelar bosh-bosh,                      Shildir-shildir kishonim,

Oyog‘ida chag‘ir tosh,                      Shildirama kishonim.

Chag‘ir toshni olaylik,                      Shildirasang mungrab

Oyog‘iga kishan uraylik.                      Buzoq qochar, kishonim!

Bolaning bu qo‘shig‘i podaning bir-biridan ajralib ketmasligi, qochmasligi, bir maromdagi harakatini belgilaydi. Chunki uy hayvonlari ham yaxshi va yomon munosabatni his qiladi va shunga qarab harakatda bo‘ladilar. Bolalarning meva daraxtlarini chumchuq va yovvoyi qushlardan asrashi, ularni tez-tez quvib turishi ham ularning mehnati hisoblanadi. U endi tomoshabin emas. Mevalarni qo‘riqlasa,

uzoq vaqt saqlash mumkinligini tushunib yetadi. Ular o‘z qo‘shiqlarini yaratib, baland ovoz bilan qushlarni haydashga urinadilar:

Hala-yo, hala-yo!

Katta polni tala-yo!

Katta polga to‘ymasang,

Kichik polni tala-yo.

Yoki:

Jo‘xorilar bo‘ldi oq,

Qo‘nma shum qorayaloq.

Agar qo‘nsang, urayin,

Bo‘lar oyog‘ing cho‘loq.

Hayu, huvva!

Bo‘sh chelaklarni to‘ldirib, suv tashib kelish ham bolalarning mashaqqatli mehnatlaridan biridir. Ilgari vaqtlarda ham suv tanqisligi bo‘lib, bolalar kattalar qatorida tinmay suv tashiganlar. Bugungi kunda ham bu tanqislik asosiy muammolardan biridir. Bolalar yoshlariga mos, kuchlari yetadigan chelak va idishlarni suvga to‘ldirib keladilar. Bu harakat bir kunda to‘rt yoki olti martagacha davom etadi. Bolalar zerikmaslik uchun qo‘shiq xirgoyi qilib, she‘r aytib ishlarini bajaradilar.

Chelagim-ho, chelagim,

Borguncha taqir-tuqur.

Chelagim-ho, chelagim,

Qaytguncha shaldir-shuldur.

Zilol suving saqlagin,

Bir tomchisin to'kmagin.

Suv keltirmoq mushkuldir,

Uni to'kmoq osondir.

Tosh yo'llarga to'qnashsam,

Chayqalmagin chelagim.

Ko'rinadiki, bola mehnat orqali har bir narsaning qadrini tushunyapti. Uni asrab-avaylash darkorlisini anglab yetmoqda. Bunday qo'shiqlar bolalar ishini tezlashtirib, yengillashtiradi. Bolalarda mehnatga muhabbat ruhini uyg'otadi, halollik, poklikka undaydi. Xulosa kilib aytganda, Xalq qo'shiklarini boshlangich sinf ukuvchilariga pedagogik texnologiyalar asosida urgatish bolaning akliy kizikishini ustirish bilan bir katorda fikrlash doirasini ustiradi.

## Xulosa

O'zbek Xalq ogzaki ijodida qo'shiklar salmokli urin egallaydi. Xalq qo'shiklarida vokelik yakka shaxsning kechinmalari orkali aks etadi. Birok bu kechinmalar jamoaning xis-tuygulari bilan uygunlashgan buladi. Chunki Xalq ogzaki ijodida yakka shaxsning kechinmalari jamoa kechinmalarini ifodalashning bir vositasi bulgan. Shuning uchun xam Xalq qo'shiklarida mexnatkash Xalqning ruxiy kechinmalari, dunyokarashi tulakonli aks etgan. Qo'shiklar Xalq ma'naviyatining kudratini, mexnatkash omma irodasining bukilmaligini ifodalab, kishilarni ruxan tetiklikka, jasoratga, mexnatsevarlik va elparvarlikka, vatanparvarlik va dustlikka, sevgida sadokatga chorlaydi. Xalq qo'shiklari shaklan nozikligi, mazmunan jozibasini, kulamdorligi tasavvurimiz, xissiyotimizga bevosita ta'sir kilish fazilatlarini bilan ardoklanishga arziydi. Muximi shundaki ularda insoniyatning azaliy e'tikodi, orzu-armoni, sevgi, oila, farzand, farovon turmush istaklari uz badiiy ifodasini topgan. Shunday ekan, Xalq qo'shiklarini ta'lim jarayonida, ayniksa, yosh avlod tarbiyasini shakllantirishdagi uziga xos xususichtlari xakida xam aloxida tadqiqotlar olib borish lozim. Shulardan kelib chikkan xolda biz Xalq qo'shiklarini boshlangich sinf ukuvchilariga urgatishda ukuvchilar dunyokarashini shakllantirishdagi urniga aloxida axamiyat berdik. Ishni tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

- Birinchidan, xalq qo'shiqlari yaratilishi va ijrosiga ko'ra xalq og'zaki ijodining eng ommaviy va qadimiy turlardan biri hisoblanadi.
- Ikkinchidan, xalq qo'shiqlari ham folklorning barcha janrlari kabi tarixiy asoslarga, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarga egadir.
- Uchinchidan, xalq qo'shiqlarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish orqali o'quvchilarning milliy an'analarimizga bo'lgan qiziqishi ortiriladi.

- To'rtinchidan, xalq qo'shiqlarini o'rgatish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy malakalari tevarak- atrofga bo'lgan qiziqishlari ortiriladi.
- Bechinchidan, qo'shiqlar negizida shakllangan umuminsoniy g'oyalarni o'quvchilarga o'rgatiladi.
- Oltinchidan, qo'shiqlar asosida vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, do'stlik, o'zaro hurmat tuyg'ulari shakllantiriladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”.- Toshkent. “Ma’naviyat”, 2008y.
2. Karimov I. A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari.- Toshkent.“O‘zbekiston” nashriyoti. 2009 y.
3. Karimov I.A.O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. -Toshkent. 1997 y.
4. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. -Toshkent. 1998 y.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.- Toshkent. 1995 y.
6. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma’suldirmiz. -Toshkent.2001.
7. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. -T.: O‘zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsersiyasi. –Toshkent. 2010. 12-noyabr.
9. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. –Toshkent. 2011. 21-yanvar.
10. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. –T.: Fan, 2010 y.
11. Imomov K. va bosh. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodiyoti T.: O‘qituvchi, 1990 y
12. Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari . –T.: Fan, 1978 y.
13. Qo‘chqortoyev Ch. Rafiyev A. Kundalik muloqot so‘zlashgich. –T., “O‘zbekiston”, 1994.
14. Yo‘ldoshev R. O‘zbek tilini o‘rganamiz. –T., “O‘qituvchi”, 1995.
15. Kariyeva Sh., Rizayev S. Yangi o‘zbek lotin yozuvini o‘rganamiz.-T., “Moliya”, 2001.

16. Asqarova M, Matchonov S. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'qitish. -T., "O'qituvchi", 2008.

17. Xalilova D. Xalq badiiy ijodiyoti.-Toshkent., "Fan", 2008.

18. Matjon S. Kitob o'qisni bilasizmi? -T., "O'qituvchi", 1995.

19. Jumaboyev S. Bolalar adabiyoti va folklor. -T., "O'qituvchi", 1995.

## **20. Elektron ta'lim resurslari.**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

3. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)

6. [www.nutq.intal.Uz](http://www.nutq.intal.Uz)